

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIYVA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**



UDK _____

**URGANCH DAVLAT UNIVERSITETI
TURIZM VA IQTISODIYOT FAKULTETI**

**5A610301 – «Turizm» ta'lim yo'nalishi bo'yicha magistrlik
darajasini olish uchun**

EGAMBERDIYEV OYBEKNING

**XORAZM VILOYATIDA ICHKI TURIZM BOZORINI
RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI**

MAGISTRLIK DISSERTATSIYA ISHI

**Ish ko'rib chiqildi
va himoyaga qo'yildi. _____**

**“Turizm” kafedrasi mudiri,
dots. D. Xudayberganov _____**

“ _____ ” _____ 2019-y

Ilmiy rahbar

_____ dots. A. S. Sadullayev

Ilmiy maslahatchi

_____ dots. U. Matyokubov

Urganch - 2019

XORAZM VILOYATIDA ICHKI TURIZM BOZORINI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

Mundarija

KIRISH

I-BOB.O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY USLUBIY ASOSLARI

- 1.1. Ichki turizm va uning tashkil topish xususiyatlari
- 1.2. Ichki turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari
- 1.3 Ichki turizm industriyasi tasnifi

II-BOB. O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

- 2.1. O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari
- 2.2. O‘zbekistonda turizm sohasidagi islohotlar tahlili
- 2.3. Mintaqada ichki turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish

III-BOB. XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI TURIZMNING IMKONIYATLARI

- 3.1. Xorazm viloyatida ichki turizm rivojlanishining hozirgi holati
- 3.2. Xorazm viloyatida ichki turizmni rivojlantirishining SWOT tahlili
- 3.3. Mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish istiqbollari

XULOSA VA TAKLIFLAR

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

KIRISH

Mavzuning dolzarbligi. Barchamizga ma'lumki, modernizatsiyalash sharoitida milliy iqtisodiyotda turizm o'ziga xos muhim o'rin egallaydi. Boy tarixiy-madaniy va tabiiy-iqtisodiy resurslar respublikamizda xorijiy va milliy turizmni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. Bugungi kunda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish sharqona mehmondo'stlik va g'arb xizmat standartlarini o'zaro uyg'unlashtirishni talab etadi. Shu munosabat bilan turizm sohasida yuz berayotgan tub ijtimoiy halol raqobat muhitni shakllantirish va shu asosda turistik korxonalar faoliyati samaradorligini oshirishga yo'naltirilmoqda.

Shu ma'noda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori qabul qilinishi davlatimiz tomonidan turizm sohasida amalga oshirilayotgan siyosatning mantiqiy davomi bo'lib, turizm sohasini jadal rivojlantirish uchun qulay iqtisodiy, ma'muriy va huquqiy muhitni yaratgan holda, eng samarali tartibni joriy etish, hududlarning iqtisodiy salohiyati va daromadlari bazasini kengaytirish, yangi ish o'rinlari yaratish, yurtimizga keladigan turistlar oqimini ko'paytirish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini jahon bozorida faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan.

Xususan, qaror bilan sohada me'yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O'zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog'liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm obyektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019-yillarda turizmni rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ma'lumki, turizm sohasini rivojlantirishda mamlakatimizda ish o'rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko'paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish

kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolda hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo'lgan turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shu munosabat bilan xorijlik turistlar uchun viza tartibotini soddalashtirish va ziyorat turizmini tashkil etish bo'yicha takliflarni muntazam kiritib borish ko'zda tutilmoqda.

Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida xorijlik fuqarolar uchun viza va ro'yxatga olish tartibini bosqichma-bosqich soddalashtirish bo'yicha takliflarni ushbu davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish darajasidan, jahon turizm bozorining kon'yunkturasi hamda xalqaro va mintaqaviy vaziyatdan kelib chiqqan holda tayyorlash bilan shug'ullanuvchi doimiy faoliyat yuritadigan ishchi guruh tuzilmoqda. Bunga qo'shimcha, turizm sohasidagi xalqaro hamkorlikni yanada rivojlantirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi va O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi tomonidan qator xorijiy mamlakatlar bilan o'zaro manfaatli kelishuv va shartnomalar tuzishni tashkil etish rejalashtirilmoqda.

O'zbekiston mintaqalarida (xususan, Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz shaharlarida) saglanayotgan har bir davr va sivilizatsiyaning o'ziga xos 400 dan ortiq me'moriy va tarixiy-madaniy obidalari, arxeologik yodgorliklari YUNESKONing butunjahon madaniy meroslar ro'yxatiga olingan. Hozirda shu ro'yxatga kiritish uchun 32 ta madaniy meros ob'ektlari nominatsiyasi taqdim etilgan. Bugungi kunda madaniy meros ob'ektlaridan 300 dan ko'prog'i sayyohlik yo'nalishlariga kiritilib, O'zbekistonga tashrif buyurayotgan turistlarga namoyish etilmoqda.

Shuningdek, mamlakatimizning quyi Amudaryo mintaqasidagi Xorazm viloyatida ichki turizm rivojlanish va viloyatda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha Davlat dasturlarining bajarilishi yuzasidan ilmiy asoslangan tavsiya va takliflar ishlab chiqish respublikamiz turim sohasi oldida turgan eng muhim muammolardan biridir. Ushbu muammolarning ilmiy-nazariy va amaliy echimlarini topish o'z navbatida, tadqiqot mavzusining dolzarbligini belgilaydi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Xorijiy mamlakatlarda turizmni rivojlantirish xususiyatlarini tadqiq qilish, undagi muammolarni aniqlab berish hamda mavjud muammolarni hal qilish bo'yicha V.Senin, V.S.Bogolyubov, A.P.Durovich, M.V.Efremova, V.A.Kvartalnov, S.B.Julidov, S.Skobkin va E.N.II'ina kabi olimlar shug'ullanishgan hamda ilmiy izlanishlar olib borganlar.O'zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari va mintaqaviy xususiyatlari yuzasidan respublika olimlaridan M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, G.H.Qudratov, A.Eshtayev, O.Xomidov, B.Turayev, D.Usmanova, N.Ibadullayev, R.Amriddinova, B.Safarov va M.Alimova kabi olimlar izlanishlar olib borganlar.

Tadqiqotning maqsadi: Xorazm viloyatida mavjud bo'lgan barcha turistik resurslarni o'rganish va imkoniyatini belgilash, hamda ulardan ichki turizmni rivojlantirishda foydalanish samaradorligini oshirish orqali uning rivojlanish isqtiqbollarini belgilash

Tadqiqotning vazifalari. Ishning maqsadi Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish yuzasidan ilmiy taklif va amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu maqsaddan kelib chiqib, tadqiqot ishining vazifalari quyidagilardan iborat:

- turizm tushunchasi va uning mohiyatini ochib berish;
- turizm turlari va uning asosiy xususiyatlarini ko'rsatib berish;
- turizm sohasini rivojlantirishda turizm industriyasi tushunchasini ochib berish;
- Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlilini amalga oshirish;
- Xorazm viloyati turizmni rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlarining tutgan o'rniga baho berish;
- Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollarini yoritib berish.

Tadqiqot ob'ekti va predmeti. Tadqiqot ob'ekti Xorazm viloyati turizm sohasi, predmeti qilib Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirish xususiyatlari bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar olindi.

Tadqiqot ishining nazariy-uslubiy asosi bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, Prezident farmonlari va asarlari, Vazirlar Mahkamasi Qarorlari, iqtisodiy adabiyotlar, internet saytlari va statistik ma'lumotlar, shuningdek turizm sohasiga bag'ishlangan manbalar xizmat qiladi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati. Ushbu bitiruv malakaviy ishining ahamiyati shundaki, unda keltirilgan materiallardan turizm turizm sohasini yanada rivojlantirish va yanada takomillashtirishda, shuningdek, oliy va o'rta mahsus o'quv yurtlarida:

—Turizm: nazariya va amaliyoti;

—Mintaqaviy turizmi;

—Turizm iqtisodiyoti;

—Turizm va mehmonxona xo'jaligi marketingi kabi fanlarni o'qitishda keng foydalanish mumkin.

Tadqiqotning yangiligi. Tadqiqotning ilmiy yangiligi Xorazm viloyatida ichki turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalarni qo'llash va turizm viloyatda turizm rivojlanishini yangi yo'nalishlarini ishlab chiqish bilan tavsiflanadi.

Tadqiqotning tuzilishi. Ushbu ish kirish, 3ta bobdan iborat 9 ta paragraf, xulosa va takliflar, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

Ishning I bobi —O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslari deb nomlanib, unda turizm tushunchasi va uning mohiyati, turizm turlari va uning asosiy xususiyatlari hamda turizm sohasini rivojlantirishda turistik tashkilotlarning o'rni ochib berilgan.

Ishning II bobi — O'zbekistonda ichki turizm rivojlanishing asosiy omillari unda mamlakatimiz ichki turizmini rivojlantirishning huquqiy asoslari, O'zbekistonda turizm sohasidagi islohotlar tahlili va mintaqada ichki turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish haqida fikrlar yoritib berilgan

Ishning III bobi Xorazm viloyati iqtisodiyotini rivojlantirishda ichki turizmning imkoniyatlarideb nomlanib, unda Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlili, Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishning

SWOT tahlili hamda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish yo'nalishlari va istiqbollari ko'rsatib berilgan.

Natijalarning e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi yuzasidan 2 ta maqola chop qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, 3 ta bob, 9 ta paragraph, xulosa va takliflar hamda foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat bo'lib jami 93 betni tashkil etadi.

INTRODUCTION

The relevance of the topic. It is well-known that in the conditions of modernization, tourism in the national economy plays an important role. Rich historical-cultural and natural-economic resources create favorable conditions for the development of foreign and national tourism in the republic. Today, the development of the tourism industry in our country requires harmonious hospitality and harmonization of western service standards. In this regard, it is aimed at creating a socially honest competitive environment in the tourism industry, and on this basis increasing the efficiency of tourist enterprises.

In this regard, adoption of the Resolution of the President of the Republic of Uzbekistan "On Priority Measures for the Development of Tourism in 2018-2019" is a logical continuation of the policy pursued by the government in the field of tourism, to create a favorable economic, administrative and legal environment for the accelerated development of the economy, to introduce the most effective regulation, to expand the economic potential and income of the regions, to create new jobs, to increase the flow of tourists to our country, is aimed at promoting an active and comprehensive world market.

In particular, it is planned to improve normative-legal regulation in the field of decision-making and development of international cooperation, to make trips to Uzbekistan, to develop tourism and industry infrastructure in all regions of the country, diversification of tourism products and creation of new tourism facilities, The Program of Priority Measures for the Development of Tourism for 2018-2019, which aims to promote and actively promote national tourism products in the domestic and foreign markets.

As it is well known, in the development of the tourism industry, it has a vast potential to solve the most important socio-economic tasks such as job creation, diversification of the economy, intensive development of the regions, increase in foreign exchange earnings, and increase incomes and living standards of the population. consistent measures are being taken to develop the tourism industry. In

this connection it is planned to simplify the visa regime for foreign tourists and to make regular travel suggestions for travel tourism.

To facilitate the implementation of this task, proposals for step-by-step simplification of visa and registration procedures for foreign citizens were developed through the development of bilateral relations with these countries, the conjuncture of the global tourism market and the international and regional situation a permanent working group is being set up. In addition, in order to further develop international cooperation in tourism, the State Committee for Tourism Development of Uzbekistan and the Ministry of Foreign Affairs of the Republic of Uzbekistan are planning to conclude mutually beneficial agreements with a number of foreign countries.

More than 400 architectural, historical and cultural monuments and archeological monuments of Uzbekistan have been included in the list of UNESCO World Heritage Sites for every period and civilization in each region of Uzbekistan (in particular, Samarkand, Bukhara, Khiva, Shahrisabz). Currently, 32 objects of cultural heritage are included in this list. Today, over 300 objects of cultural heritage are included in tourist destinations and presented to tourists visiting Uzbekistan.

Also, the development of scientific recommendations and recommendations on the implementation of the State Program on development of domestic tourism in the Khorezm region of the lower Amudarya region of the country and the development of the tourism industry in the region is one of the most important problems in the sphere of tourism. Finding scientific-theoretical and practical solutions to these problems, in turn, determines the relevance of the subject matter.

Subject level. Scientists such as V. Senin, Bogolyubov, Durovich, Efremova, Kventznov, Julidov, S.Skobkin and have studied the features of tourism development in foreign countries, identifying problems and solving existing problems. M Pardaev, Tukhliyev, G Qudratov, A.Eshtaev, O. Khomidov, B.Turaev, D.Usmanova, N.Ibadullayev, and others have been trained in the field of tourism development and regional features in Uzbekistan.

Purpose of the research: to study and determine the possibilities of all tourist resources available in Khorezm region and to determine their development prospects with the use of efficiency in the development of domestic tourism

Research Tasks. The purpose of the work is to develop scientific recommendations and practical recommendations on the development of tourism in Khorezm region. To this end, the tasks of the research are:

- Explain the concept of tourism and its essence;

- presentation of types of tourism and its main features;
- Explain the concept of tourism industry in the development of tourism industry;
- To analyze the current state of tourism development in Khorezm region;
- Assessment of the role of infrastructure networks in the development of tourism in Khorezm region;
- Explaining trends and prospects of tourism development in Khorezm region.

Object of subject and research. The object of the research was socio-economic relationships with Khorezm province and subject is antourism industry, related to the development of tourism in the Khorezm province.

Theoretical and methodological basis of the research is the laws of the Republic of Uzbekistan, Decrees and publications of the President, Resolutions of the Cabinet of Ministers, economic literature, websites and statistical information, as well as the sources of tourism.

The practical significance of the research. The significance of this graduation work is that the materials presented in it include the further development and further improvement of tourism in tourism, as well as in higher and secondary specialized educational institutions:

- Tourism: Theory and Practice;
- Touristic tourism;
- Tourism Economics;
- Tourism and hotel management marketing are widely used.

Research novelty. Scientific researches of the research are characterized by the use of international experience in the development of domestic tourism in Khorezm region and tourism development of new directions of tourism development in the region.

The structure of the research. This study consists of 9 paragraphs, conclusions and recommendations, 3 chapters, a list of publications.

Chapter I of the Work is called theoretical-methodological basis for the development of domestic tourism in Uzbekistan, which outlines the concept of tourism and its significance, types of tourism and its main features, and the role of touristic organizations in the development of tourism industry.

Chapter II of the work - the main factors in the development of domestic tourism in Uzbekistan are the views on the legal framework for the development of

domestic tourism in Uzbekistan, the analysis of tourism in Uzbekistan and the use of international experience in the development of domestic tourism in the region.

Chapter III of the work is an opportunity for domestic tourism development in the Khorezm region, where the analysis of the current state of tourism development in Khorezm region, SWOT analysis of tourism development in Khorezm region and trends and prospects of tourism development in Khorezm region are presented.

Announced results. Published 2 articles on the subject of the dissertation.

Structure and extent of dissertation. The dissertation consists of a total of 93 pages consisting of 3 chapters, 9 paragraphs, conclusions and recommendations, and a list of used literature.

I-BOB. O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZMNI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI

1.1. Ichki turizm va uning tashkil topish xususiyatlari

Zamonaviy turizmni o‘ziga xos xususiyatlarini belgilash maqsadida uning muhim tasnifiy belgilarini aniqlab olish zarur bo‘ladi. Jumladan, geografik belgilari, turistik oqim yo‘nalishi, safar maqsadi, harakatlanish usuli bo‘yicha, tashkiliy-huquqiy shakllarini tasniflash maqsadga muvofiqdir.

Ichki turizm – mahalliy aholining o‘z mamlakati hududiga turistik jozibador joylarga maqsadli ravishda uyushtirgan sayohatini qamrab oladi. Kirish turizmi- mamlakat fuqarosi bo‘lmagan shaxslarning mamlakat hududiga turistik maqsaddagi tashrifi, sayohati hisoblanadi.

Chiqish turizmi- bir mamlakat hududida doimiy yashovchi shaxsni boshqa mamlakatga to‘lanadigan faoliyat bilan mashg‘ul bo‘lmagan holda, unga sayohati, tashrifi tushuniladi. Turizmning yuqoridagi bu uch turidan quyidagi kategoriyalar kelib chiqadi, bular:


Milliy turizm- bu o‘zida ichki va chiqish turizmlarini birlashtirib, mamlakat hududida yashovchi fuqarolarning o‘z mamlakatlarida yoxud xorijiy davlatlarga turistik maqsadlarda amalga oshirilgan sayohatlari kiradi.

Davlat miqyosidagi turizm- bu ichki va kirish turizmlarni birlashtirib, shu mamlakatdagi fuqarolar, shuningdek xorijiy fuqarolarning aynan bir mamlakat hududidagi sayohatlarga aytiladi.

Xalqaro turizm, - o‘z ichiga kirish va chiqish turizmlarini qamrab oladi, ya‘ni vaqtinchalik kelgan joyida haq to‘lanmaydigan, doimiy yashaydigan mamlakat chegarasidan tashqariga turistik maqsadlarda safar qilish tushuniladi [177]. (1.1- chizma)

Bularning barcha bir chizmada yig‘ilib turizm uchburchagini tashkil qiladi. Ba‘zi mutaxassislar, masalan, turizm bo‘yicha mutaxassis i.f.n, dotsent Ibragimov N. Stomonidan bu uchburchak “turizmning oltin uchburchagi” deb

yuritiladi.



1.1.1-chizma. Turizmning asosiy kategoriya va turlari¹

Shuningdek, "turistlarni qabul qilish" va "turistlarni jo`natish", - kabi umumiy tushunchalar ham bo`lib, bular ichki va xalqaro turizm uchun ham taalluqlidir. Turizm statistikasida "turistik tashrif" atamasi ham mavjud. Aynan turistik tashrif soniga qarab turistik oqim belgilanadi. Turist tushunchasining ichki tabiatidan kelib chiqib aytish mumkinki, turist biror joyga keldimi, demak, u mazkur joydan o`zining mamlakatiga yoki doimiy istiqomat joyiga ketishi ham kerak. U vaqtinchalik kelib - ketuvchidir.

Turizm statistikasida tranzit turist tushunchasi ham bo`lib, unda turistlarning o`z davlat hududidan ikkinchi davlat hududiga borayotganda oradagi davlat hududida to`xtab o`tishi tushuniladi. Bunday davlatlararo tranzit turist bo`lish uchun maxsus tranzit vizalar ham bo`lishi lozim. Tranzit turistlarning mamlakatda bo`lish muddatlari chegaralangan.

¹: Приложение к постановлению Государственного комитета Республики Узбекистан по статистике от «18» января 2012 г. № 1

“Turistlarni qabul qilish” kategoriyasi - mazkur hududga yoki turistik markazga turistlarning kelishi va ularga ko`rsatiladigan xizmat faoliyati bo`yicha xarakterlanadi. Ushbu faoliyatdan turizmni tashkil qilish bo`yicha barcha turizm infratuzilmasi - transport yuklarini tashuvchilar, mehmonxonalar va restoranlarni ish bilan ta`minlash kelib chiqadi. Ko`rsatilgan xizmatlar natijasida milliy (xorijiy turizm orqali esa xorijiy) valyuta massasi ko`payadi. Turistlarni qabul qilishda turistik region yoki markazda ishchi o`rinlari tez tashkil etiladi, mahalliy turistik resurslardan foydalanish hisobiga regionda iqtisodiyot rivojlanadi. Ichki va xorijiy turistlarni qabul qilish balansi tarkib topadi.

Turizmning rivojlanishi mamlakatning iqtisodiy - siyosiy omillariga bog`liq. Shu bilan birga turizmdan tushadigan xorijiy valyuta davlat iqtisodiyotining o`shishiga ta`sir etadi. Respublikamiz Mustaqillikka erishgach ular o`rtasidagi farq kamaydi va bir qator tarixiy shaharlardagi turistik markazlar va firmalar uchun turizm juda katta daromad manbai bo`lib qoldi.

“Turistlarni jo`natish” ham muhim kategoriya hisoblanadi. Bunday faoliyat doimo pul massasini boshqa region yoki xorijiy davlatlarga chiqib ketishiga olib keladi. Shu boisdan, turistlarni jo`natish hech qachon mahalliy hudud uchun ham, turistik agentliklar uchun ham ustun soha bo`lmagan. Xuddi mana shuni e`tiborgaolib, davlatlar ichki turizmni rivojlantirishga va turistlarni jo`natishga to`squinlik qiluvchi qattiq iqtisodiy to`siqlarni o`ylab topishadi.

Shularni esdan chiqarmaslik kerakki, turistlarni jo`natish ham, yoki turistlarni qabul qilish ham mahalliy xazinani soliq bilan to`ldirish imkonini beradi. Ichki va kirish turizmning rivojlanishidagi ayrim muammolar va ko`rsatkichlar:

Rivojlangan mamlakatlarda turizm uyg`un holatda taraqqiy etadi, ichki va qabul qilish turizmida balans mavjud. Ichki turizm milliy turistik resurslardan unumli foydalanish va turizm industriyasi va infratuzilmasini rivojlantirishga yordam beradi.

Ammo, amaliyotda hamma mamlakatlar ham bunga qodir emaslar. Albatta, bu mamlakat iqtisodiyotining turizmga bog`liqligida, ya`ni turizmsiz yashay olmaydigan, iqtisodiyoti turizm bilan bog`liq mamlakatlargina bunga amal

qiladilar. Ayrim mamlakatlar ichki davlat tuzumi bahonasida fuqarolarining xorijga chiqishini chegaralab qo'yishadi yoki turistik faoliyatni davlat tomonidan boshqarish uchun choralar kiritishadi. Ya'ni, davlatning ruxsatisiz biror yerga chiqish juda qiyinlashadi, turizmni boshqarish roli davlat qo'lga o'tadi.

Yer yuzidagi juda ko'plab davlatlarning aholisi turizm maqsadida xorijga chiqishga qodir emaslar. Asosiy sabab olinadigan maoshning kamligi yoki aholining kambag'alligidir. O'zbekiston ulkan tabiiy va madaniy - tarixiy resurslari bilan xohlagan turistlar talabini qondirishi va kelajakda ulkan turistlar oqimini kutib olish imkoniyatiga egadir. Lekin, turizm industriyasini yanada rivojlantirish, turizm infratuzilmasini yuqoriga ko'tarish, turizmga investitsiyalarni ko'proq jalb etish, turizmda servisni zamon talablariga moslashtirish, xizmat ko'rsatuvchi subyektlardagi xizmat narxini pasaytirish, ularda o'zaro raqobat muhitini yaratish, xorijga chiqish va xorijdan kelish vizalarini olishdagi mexanizmni soddalashtirish, malakali kadrlarni yetishtirish bilan bu ishga yanada ko'proq hissa qo'shgan bo'lamiz.

To'g'ri, keyingi yillarda Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm shaharlariga hukumatimiz va xorijiy investorlar tomonidan turizm infratuzilmasi uchun mablag'lar ajratildi. Yirik mehmonxonalar qurildi, modernizatsiya qilindi, yangi zamon talabidagi avtobus va avialaynerlar sotib olindi. Yirik turistik markazlar, yodgorliklar ta'mirlandi, yo'llar barpo etildi. Xususiy mehmonxonalar va milliy uylar bunyod etilib, mahalliy va xorijiy turistlarni qabul qilib bormoqda. Rekreatsion hududlar, masalan, Chorbog'- Chimyon hududiga respublika byudjetidan katta mablag' ajratildi. Madaniy - tarixiy yodgorliklarni ta'mirlash ishlari davom etmoqda. Bulardan mustasno bo'lmagan holda respublikamizda ichki turizm sekinlik bilan rivojlanmoqda.

Lekin ba'zida respublikamiz aholisining aksariyat qismi butun dunyoga mashhur Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz kabi tarixiy shaharlarni biror marotaba bo'lsa ham ko'rish imkoniyatiga ega bo'lmaganlarini uchratamiz. Bunga sabab faqatgina ularning iqtisodiy cheklovlari emas, balki sayohat qilish madaniyatini bilmasligida va uning qanchalik inson hayotida muhim o'rin

egallashi kabilarni his qilmasligidadir. Bunday tajribaga ega bo`lish uchun esa aholimiz albatta soha mutaxasislari, turoperatorlar ko`magidan foydalanishlari shart, chunki ular sayohat qilish etiketidan xabardor bo`lib, uni yuksak darajada ko`rsata olishadi. Shu bois, ichki turizmni rivojlantirish, aholimizning turizm va dam olish ehtiyojlarini to`laroq qondirish uchun turistik resurslardan maksimal tarzda foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Shuningdek, mustaqil respublikamizga xorijiy turistlar kelishiga ham katta e`tibor berishimiz kerak. Shundagina, davlatimiz xazinasini va turoperatorlarning banklardagi hisob - raqamlariga milliy va xorijiy valyuta kelib tushishiga erishamiz. Buning oqibati esa ravshan - iqtisodiyotimiz rivojlanishiga ko`maklashgan bo`lamiz, tadbirkorlik subyektlarining farovonligi ortadi, turmush tarzi ko`tariladi.

Bu jarayonda sayyohlik sohasining huquqiy asosini takomillashtirishga alohida e`tibor qaratilmoqda. Xususan, O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 10-oktabrda qabul qilingan "O`zbekiston Respublikasida turizm sohasini yanada qo`llab-quvvatlash va rivojlantirish chora-tadbirlari to`g`risida"gi qarori turizm va turistik infratuzilmani rivojlantirishni qo`llab-quvvatlash, milliy turistik xizmatlarni xalqaro sayyohlik bozorlariga faol kiritishga xizmat qilishi shubhasiz.

Mamlakatimizda BMT Taraqqiyot dasturi bilan hamkorlikda amalga oshirilayotgan "Mahalliy boshqaruv tizimini qo`llab-quvvatlash: fuqarolik ishtiroki va hamkorlik" loyihasi olti yo`nalishdan iborat bo`lib, ulardan biri hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanishga qaratilgan. Bu borada ikkita boshlang`ich hudud: Jizzax viloyatining Zomin hamda Namangan viloyatining Chortoq tumanlari tanlab olingan.

Mazkur tumanlar ichki turizmni rivojlantirish uchun qulay hudud hisoblanadi. Xususan, Zominda rekreatsion – dam olish va sog`liqni tiklash maqsadlariga xizmat qiluvchi ko`plab resurslar mavjud. Hududning tog` ekotizimi, arxeologik yodkorliklari u yerda ekologik, speleologik (g`orlarga sayohat qilish), tarixiy, qishloq va sport turizmi – chang`ida uchish, piyoda sayohat, tog` velosipedini

rivojlantirish imkonini beradi. Loyiha ijrosi doirasida Zominda mahalliy va xorijiy sayyohlar uchun qiziqarli ikki turistik yo`nalish ishlab chiqildi. Sayyohlarga yuqori darajada xizmat ko`rsata oladigan transport kompaniyalari, ovqatlanish shoxobchalari bilan aloqalar yo`lga qo`yildi. Arxeologik yodkorliklarga eltuvchi avtomobil yo`llarida o`zbek, rus va ingliz tillarida yo`l ko`rsatkichlar o`rnatildi.

Mamlakatimizda ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko`lamli ishlar sayyohlarga qulay sharoit yaratish va ularning o`z sayohatlarini mazmunli o`tkazishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda O`zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham munosib hissa bo`lib qo`shilmoqda.

Bir narsani bilishimiz kerakki, yurtimizda avvalo ichki turizmni rivojlantirmay turib, xorijiy sayyohlarni jalb eta olmaymiz. Chunki ularni besh yulduzli mehmonxonalar emas, balki shu yurtning urf-odatlarini, an`analarini aks ettirgan uylar, xonadonlar ko`proq qiziqtiradi. Shu sababli uzoq hududlardagi sayyohlar oqimi kam bo`lgan nuqtalardagi ichki turizmni rivojlantirishga katta e`tibor qaratish lozim. Shu maqsadda yurtimizda sayyohlik safarini amalga oshirganlarga sarflagan mablag`idan daromad solig`i ushlamaslikni joriy etilmoqda. Shuningdek, korxonalar va tashkilot rahbarlari qo`l ostidagi ishchilarni ichki turizm rivojiga jalb etgani uchun sarflagan xarajatlarini o`zining soliq bazasidan ayirib tashlash imkoni mavjud bo`ladi. Bu bo`yicha Prezident farmoni va qarorlari loyihasi ishlab chiqilgan.

Bundan tashqari, Turizmni rivojlantirish davlat qo`mitasi tomonidan joriy yilda «Uzbekistan Tourism Awards» taqdimoti o`tkaziladi. Unda respublika bo`ylab eng yaxshi mehmonxona, eng yaxshi mehmonxona lageri, eng yaxshi gid, eng yaxshi restoran, eng yaxshi motel, eng yaxshi bloger, eng yaxshi fotosuratchi, eng yaxshi jurnalist kabi nominatsiyalar bo`yicha g`oliblar aniqlanadi. O`zbekistonning boy tarixi, betakror tabiati, qadim o`tmishidan so`zlovchi go`zal obidalari, o`zbek oshxonasining rang-barangligi, milliy taomlarimizning betakror mazasi chet ellik sayyohlar mehrini qozongan. Yurtimizda har bir voqea o`zining urf-odatini, yashash

tarzi, tarixi bilan bir-biridan farq qilib, bu omil nafaqat tashqi, balki ichki turizmning rivojlanishiga ham xizmat qiladi.

O‘zbekiston tarixiy qadamjolarining ko‘pligi bo‘yicha dunyodagi etakchi o‘n mamlakatdan biri sanaladi. Samarqand, Buxoro, Toshkent, Xiva, Shahrisabz kabi betakror shaharlarimiz butun dunyoda ma’lum va mashhur. Quvonarlisi, bu ko‘hna kentlarga keluvchilarning soni yildan yilga ortib bormoqda.

2017 yilning 28 dekabr kuni Prezident Shavkat Mirziyoevning “2018 yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida”gi farmoni qabul qilindi. Ushbu hujjatga ko‘ra O‘zbekistonda Yangi yil, Navro‘z va Mustaqillik bayramlari, Ramazon va Qurbon hayitida qo‘shimcha dam olish kunlari belgilandi. Bayram munosabati bilan beriladigan qo‘shimcha dam olish kunlari evaziga hamyurtlarimiz oila davrasida yaqinlari bilan hordiq chiqarish, bayramni ko‘ngildagidek nishonlash imkoniga ega bo‘ladilar. Bu kunlar davomida yurtimizning turli ziyoratgohlari, qadimiy shaharlariga sayohatlar uyushtirish, o‘lkamizning xushmanzara go‘shalari tarovatidan bahra olishlari mumkin.

Samarqand – O‘zbekistonning turizm sohasi bo‘yicha katta salohiyatga ega bo‘lgan tarixiy shaharlardan biri. Geografik jihatdan joylashuvi, tabiiy va madaniy resurslarga boyligi bilan ham etakchi o‘rinni egallaydi. Viloyat hududida 1105 arxeologik, 670 me’moriy, 37 diqqatga sazovor maskan, 18 monumental, 21 memorial, jami 1851 ta moddiy-madaniy meros ob’ektlari mavjud. Viloyatda turistik xizmatlar bilan shug‘ullanish huquqiga ega bo‘lgan 85 ta turistik firma, 107 ta mehmonxona faoliyat ko‘rsatadi. Bir vaqtning o‘zida ular tomonidan 4500 ga yaqin sayyohga xizmat ko‘rsatish imkoni mavjud.

Musulmonlar ziyorat qilishi lozim bo‘lgan bir qancha islom dini va ta’limoti vakillari, silsilai oliyga mansub avliyolar va boshqa ulug‘ zotlarning maqbaralari Samarqandda joylashgan. Xususan, islom dinida Qur’oni Karimdan keyingi ikkinchi o‘rinda turuvchi “Sahihi Buxoriy” kitobi muallifi Imom Buxoriy, dunyodagi eng katta kalom maktablaridan birining asoschisi Imom Moturudiy, silsilai oliyga mansub Xo‘ja Ahrori Valiy, Payg‘ambarimiz Muhammad (s. a.

v)ning amakivachchasi Qussam ibn Abbos (Shohizinda majmuasi) va boshqa ulug' zotlar maqbaralari shular jumlasidan.

Samarqand viloyatiga o'tgan 2017 yilda jami 1 million nafardan ortiq mahalliy sayyohlar tashrif buyurdi. Viloyatda tarixiy-madaniy, eko va agro, gastronomik, ekstremal va boshqa turizm yo'nalishlarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Ayniqsa, Samarqand ziyorat turizmi yo'nalishida juda katta salohiyatga ega.

Xorazm viloyati ham o'zining betakror tabiati, tarixiy qadamjolari bo'yicha dunyoda yetakchi o'rinlarda turadi. Bu go'shaga kelish istagida bo'lgan sayyohlar soni ham yil sayin ortib bormoqda. Viloyatda 80 ta sayyohlik tashkilotlari, 2 ming 489 o'rinli 58 ta mehmonxona, 22 ta tur agentliklari bo'lib, ular sayyohlar xizmatiga doimo shay.

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida Xorazm viloyatiga jami 920 ming nafardan ortiq sayyoh tashrif buyurgan bo'lib, shundan, 60 mingdan ortig'i xorijiy, 859 ming nafardan ziyodi mahalliy sayyohlardir. 2018 yilning yanvar oyida esa "Ichanqal'a" muzey-qo'riqxonasiga viloyatlardan 31 ming nafardan ortiq mahalliy sayyoh tashrif buyurdi.

Sayohat qilishni istovchilar uchun mehmonxonalar, kafe va restoranlarda maxsus chegirmalar belgilanadi, sayohatchilar uchun talay qulayliklar mavjud. Birgina Navro'z bayrami munosabati bilan 2018 yilning 18-22 mart kunlari "O'zbekiston havo yo'llari" MAK direksiyasi tomonidan barcha ichki reyslarga chegirmalar tizimi ishlab chiqilgan. Unga ko'ra 18,19,20,21 va 22 mart kunlari mahalliy reyslarga 30 foizdan 50 foizgacha bo'lgan chegirmalar tashkil qilingan. Bu ham bo'lsa ichki turizmni rivojlantirish, yurtdoshlarimizni diyorumizning istalgan hududiga borib, tarixiy obidalarimiz, xushmanzara go'shalarimiz bilan yaqindan tanishish imkonini beradi.


Mamlakatimizda ichki turizm infratuzilmasini rivojlantirish borasida olib borilayotgan keng ko'lamli ishlar sayyohlarga qulay sharoit yaratish va ularning o'z sayohatlarini mazmunli o'tkazishiga xizmat qilishi bilan bir qatorda

O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ham munosib hissa bo'lib qo'shilmogda.

1.2. Ichki turizmni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy omillari

O'zbekiston turizm sohasi rivojlanishida salmoqli salohiyatiga ega davlat. Bu ko'plab noyob tabiat ob'ektlarining mavjudligi (ko'llar, tog 'cho'qqilari), boy madaniy va tarixiy meros bilan ham bog'liqdir. Yildan yilga O'zbekiston Respublikasiga xorijliklarning tashrifi ortib bormogda. Bu holat 1-rasmda yaqqol ko'rinadi. Oxirgi 15 yillikni oladigan bo'lsak xorij fuqarolarining O'zbekistonga tashrifi 15,5 marta, yoki 2002 yildagi 442,1 ming kishidan 2017 yilda 2847,9 ming kishiga yetgan. O'zbekiston fuqarolarining chet ellarga tashrifi 2017 yilda 5182,5 ming kishini tashkil etgan, bu 2002 yilga taqqoslanganda 6,5 marta ko'p.

1.2.1-rasm. 2002-2017 yillarda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari va ketgan O'zbekiston Respublikasi fuqarolari soni, ming kishi²




2017 yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan xorij fuqarolarining safar maqsadlari bo'yicha taxlil qilinganda: 2272,3 ming kishi (84,7%) qarindoshlarni yo'qlash maqsadida, 203,7 ming kishi (7,6 %) turistik maqsadda, 159,9 ming kishi (5,9 %) xizmat yuzasidan, 28,7 ming kishi (1,1 %) davolanish maqsadida, 18,5

²Manba: www.stat.uz

ming kishi (0,7 %) tijorat maqsadida, 6,9 ming kishi (0,3 %) o'qish maqsadida tashrif buyurganini ko'rishimiz mumkin.


1.2.2-rasm.2017 yilda O'zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining safar maqsadlari bo'yicha taqsimlanishi, ming kishi³



Xorijlik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi MDH davlatlari orasida Qozog'iston Respublikasiga to'g'ri keladi - 1783,8 ming kishi (yoki MDH davlatlaridan kelganlarning 67,7 %), Tojigiston 261,9 ming kishi (9,9 %), Rossiya 143,9 ming kishi (5,5 %), qolgan davlatlar 16,9 % (bular Turkmaniston (62,5 ming kishi), Ozarbayjon (4,3 ming kishi), Belarus (3,0 ming kishi), Ukraina (0,7 ming kishi) (3-rasmga qarang). 1 10 100 1000 10000 6,9 18,5 28,7 159,9 203,7 2272,3

³Manba: www.stat.uz


1.2.3-rasm. 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasiga kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo‘yicha taqsimoti, ming kishi⁴



2017 yilda xorijlik tashrif buyuruvchilarning asosiy qismi uzoq xorijiy mamlakatlar orasida Turkiyaga to‘g‘ri keladi (55,2 ming kishi), keyingi o‘rinlarda Koreya (37,4 ming kishi), Xitoy (19,7 ming kishi), Germaniya (7,8 ming kishi), BAA (5,8 ming kishi), Fransiya (5,7 ming kishi), Isroil (4,2 ming kishi), Yaponiya (4,1 ming kishi), Pokiston (3,8 ming kishi), Buyuk Britaniya (3,3 ming kishi), Malayziya (3,2 ming kishi), AQSh (1,5 ming kishi) va boshqa davlatlar (61,0 ming kishi).


⁴Manba: www.stat.uz

1.2.4-rasm. 2017 yilda O‘zbekiston Respublikasiga uzoq xorijiy davlatlardan kelgan chet el fuqarolari sonining mamlakatlar bo‘yicha taqsimlanishi, ming kishi⁵



Oxirgi 5 yillikni ko‘radigan bo‘lsak, faoliyat ko‘rsatayotgan turistik firma va tashkilotlarning soni oshgan. Misol uchun 2012 yilda ularning soni 345 ta bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilga kelib 104 taga ko‘paygan va 449 taga yetgan. Xuddi shunday xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar ham 2012 yilda 203,7 ming kishi bo‘lgan bo‘lsa, 2017 yilda 782,7 ming kishini tashkil etgan. Ulardan qabul qilinganlari 2012 yilda 102,4 ming kishidan 2017 yilda 167,4 ming kishiga yetdi.

1.2.5-rasm. Turistik firma va tashkilotlarning soni va xizmat ko‘rsatilgan tashrif buyuruvchilar⁶




⁵Manba: www.stat.uz

⁶Manba: www.lex.uz

2017 yilda O‘zbekiston Respublikasida turistik firma va tashkilotlarning asosiy qismi Toshkent shahrida (321 ta) joylashgan bo‘lib, ular tomonidan 70,8 ming xorijlik fuqarolarga xizmat ko‘rsatilgan. Samarqand viloyati bo‘yicha esa 57 ta turistik firma va tashkilotlar faoliyat ko‘rsatmoqda, ular tomonidan 13,1 ming xorijlik fuqaroga xizmat ko‘rsatilgan. Xorazm viloyati bo‘yicha esa 8 ta turistik firma va tashkilotlar mavjud, ular tomonidan 51,2 ming xorijlik fuqaroga xizmat ko‘rsatilgan.


1.2.6-rasm. 2017 yilda turistik faoliyatni amalga oshirgan firma va tashkilotlarning soni xududlar kesimida⁷



Yurtimizda 2017 yilda 676 ta mehmonxona mavjud bo‘lgan bo‘lib, 17703 nomerlar (xonalar) va 34140 ta joylarga ega. 1 yulduzli mehmonxonalar 143 ta, 2 yulduzli mehmonxonalar 19 ta, 3 yulduzli mehmonxonalar 96 ta, 4 yulduzli mehmonxonalar 38 ta, 5 yulduzli mehmonxonalar 9 tani tashkil etgan.

⁷Manba: www.lex.uz

1.2.7-rasm. 2017 yilda mehmonxonalarning toifasi (yulduzlari) bo'yicha ulushi, %⁸




Mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning turish muddatlari bo'yicha taqsimlanishidan ko'rinadiki, 1-3 kun tunash 88,3 % ni tashkil etgan, 4-7 kun tunash esa 8,6% ni, 8-28 kun tunash 2,8% ni, 29-91 kun tunash esa 0,2 % ni tashkil etgan. (1-jadval)

1.2.1-jadval 2017 yilda turish muddati bo'yicha mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalarida joylashtirilgan shaxslarning taqsimlanishi, ming kishi

	Jami	Turish muddati bo'yicha					
		1-3 kun tunash	4-7 kun tunash	8-28 kun tunash	29-91 kun tunash	92-182 kun tunash	183-365 kun tunash
Jami joylashtirilgan shaxslar, ming kishi	1714.2	1513.5	147.6	47.4	3.7	0.4	1.6
O'zbekistondan	1098.3	970.8	92.2	31.0	2.5	0.3	1.5
MDH mamlakatlaridan	173.4	146.1	21.8	5.0	0.3	0.01	0.08
Uzoq xorijiy mamlakatlardan	442.5	396.5	33.6	11.4	0.9	0.06	0.03

⁸Manba: www.stat.uz

1.2.8-rasm. 2017



yildasafarmaqsadlaribo'yichamehmonxonavashunga⁹o'xshashjoylashtirishvositalaridajoylashtirilganxorijlikshaxslarningtaqsimlanishi, kishi

2017 yilda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari xodimlari soni (o'rindoshlarsiz) 7383 tani tashkil etadi. Ulardan 1731 ta xodim oiliy ma'lumotli, 213 ta xodim esa kasbiy sayyohlik ma'lumotiga ega. Ayollar 3468 nafarni tashkil qilib, xodimlarning 47 % ini tashkil etadi. Lavozim toifalari bo'yicha taxlil qiladigan bo'lsak, 1649 nafari mehmonxona ma'murlari, 694 nafari menejerlar, 2006 nafari mehmonxona shveysari va oqsochlar va 937 nafari restorat va bar xodimlarini tashkil etadi. 2 jadvalda mehmonxona va shunga o'xshash joylashtirish vositalari xodimlari sonini xududlar kesimida ko'rish mumkin.

⁹Manba: www.stat.uz

1.2.2-jadval. 2017 yilda mehmonxona va shunga

o‘xshash joylashtirish vositalari xodimlari soni , kishi

	Jami (o‘rindoshlar siz)	ulardan lavozim toifalari bo‘yicha:			
		mehmonxo na mamurlari	menejerl ar	mehmonxo na shvesariya va oqsochlar	restoro n va bar xodimla ri
O‘zbekiston Respublikasi	7383	1649	692	2006	937
Qaraqalpog‘is ton Respublikasi	150	49	15	53	10
viloyatlar:					
Andijon	203	39	8	62	15
Buxoro	543	170	71	182	43
Jizzax	167	53	7	22	16
Qashqadaryo	257	75	19	106	26
Navoiy	330	76	17	119	50
Namangan	150	46	14	53	10
Samarqand	639	171	67	156	59
Surxondaryo	273	75	15	65	20
Sirdaryo	57	18	10	13	10
Toshkent	500	128	33	115	3
Farg‘ona	354	68	30	87	17
Xorazm	410	97	37	130	56
Toshkent sh.	3350	584	349	843	602


O‘zbekistonda 460 ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari ob‘ektlari mavjud. Bular 18 ta demolish pansionati, 41 ta demolish uylari va bazalari, 8 takemping, 71 ta katta yoshlilar uchun sanatoriya, 33 ta bolalar uchun sanatoriya va 289 taboshqa joylashtirish vositalari. Jami nomerlar (xonalar) soni 15607 ta, joylar soni esa 57099 tadan iborat. Jami joylashtirilgan shaxslar soni 632,8 mng kishi, ulardan 11,1 ming nafari MDH davlatlaridan, 5,9 ming nafari esa uzoq xorijiy mamlakatlardan. Jami tunab qolishlar soni 599724 sutkani tashkil etadi, undan 79030 sutka MDH fuqarolari xissasiga, 8461 sutkasi uzoq xorijiy mamlakat fuqarolari xissasiga to‘g‘ri keladi.

1.2.3-jadval

2017 yilda ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari faoliyati, kishi

	jami	Shu jumladan:					
		dam olish pansionat i	dam olish uyllari va bazalari	kemping	katta yoshlilar uchun sanatoriya	bolalar uchun sanatoriya	boshq alar
ixtisoslashtirilgan joylashtirish vositalari ob'ektlari soni, birlik	460	18	41	8	71	33	289
nomerlar (xonalar) soni, birlik	15607	435	1537	161	5630	1117	6727
joylar soni, birlik	57099	1217	3776	524	10801	4525	36256
joylashtirilgan shaxslar soni, mng kishi	632.8	32.7	61.9	5.9	232.5	29.2	270.5
Shu jumladan fuqarolar:							
O'zbekistondan	615.8	27.7	61.3	5.9	225.3	29.2	266.4
MDH davlatlaridan	11.1	2.5	0.1	0.02	7.0	-	1.4
uzoq xorijiy mamlakatlardan	5.9	2.5	0.4	0.02	0.2	-	2.7
Tunab qolishlar soni, jami	599744	100418	190013	17833	2468028	978801	2242151
Shu jumladan fuqarolar:							
O'zbekistondan	5909753	95296	188853	17793	2400540	978801	2228470
MDH davlatlaridan	79030	2622	428	21	65436	-	10523
uzoq xorijiy mamlakatlardan	8461	2500	732	19	2052	-	3158

1.2.9-jadval. O'zbekiston Respublikasida turizmning eksportdagi ulushi, %¹⁰



YaIMda turizmning ulushi 2016 yilda 2,4 % ni tashkil etgan bo'lib, bu ko'rsatkich 2014 yilda 2,7 %, 2015 yilda esa 2,6 % tashkil etgan. Turizmning eksportdagi ulushi esa 2014 yilda 7,8 %, 2015 yilda 9,5 %, 2016 yilda esa 10,4 % tashkil etgan.

Yuqoridagi ma'lumotlar asosida yurtimizda ichki turizm qay darajada rivojlanganini ko'rishimiz mumkin. Albatta keyingi o'n yillikda bundan ham yuqori natijalarga erishamiz. Buning uchun eng avvalo mavjud resurslarimizdan oqilona foydalanib bilishimiz, turizm industriyasidan tushayotgan daromadlarni optimal ravishda to'g'ri yo'naltira olishimiz kerak. Qolgan turizm rivojlangan davlatlar kabi yo'llarni o'rganib chiqib, bizga mos keladiganini yurtimizda tadbiiq qilishimiz shart va zarur.

Jadvalda bizda hali yaxshi rivojlanmagan chiqish turizmining ham 2025-yilga borib yaxshi natijalarga erishimizni ko'rdik. Hozirgi kunda bilamizki yurtimizda turizm mavsumiy hisoblanadi. Manashu mavsumiylikni yo'qotishga erishilsa bu soha yanada gullab yashnaydi. Masalan ishlash davomiyligi uzun bo'ladi, mavsumiylik kamaytirilsa turistik korxonalar ishi to'xtab qolmaydi, doimiy

¹⁰Manba: www.lex.uz

daromad kelib turadi, ishchi xodimlarning turmushi yanada yaxshilanadi. Mavsumiylikga sabab qilib tabiat injiqliklari deb yuritiladi bizda, ya'ni qishda sovuq, yozda issiqligi sababli xorijiy turistlar oqimi kamayadi. Lekin nega Dubayda havo doimiy ravishda 50° dan ortiq bo'lsa ham mavsum to'xtab qolmaydi? Bu savolning javobi shuki mamlakatda qachonki ichki turizm dominant bo'lsa, o'sha paytda mavsumiylik kamayadi.

1.3 Ichki turizm industriyasi tasnifi

Turizm industriyasi – bu mehmonxonalar va joylashtirish vositalari, transport vositalari, umumiy ovqatlanish ob'ektlari, ko'ngil ochish ob'ektlari, vavositalari, bilim o'rtirish, davolash, sog'lomlashtirish, sportga doir, diniy marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshqa maqsadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistlikekskursiyava gid-tarjimonlik xizmatlarini taklif qiluvchi tashkilotlar majmuidir.

O'zbekiston Respublikasining «Turizm to'g'risida» gi Qonunda turistlik industriya tushunchasi quyidagi tarzda ta'riflanadi: Turistik industriya – turistlik faoliyatning turistlarga xizmat ko'rsatishini ta'minlovchi turli sub'ektlar (mehmonxonalar, turistlik komplekslar, kempinglar, motellar, pansionatlar, umumiy ovqatlanish, transport korxonalar, madaniyat, ekport muassasalari vaboshqalar) majmui.

Taraqqiyotning hozirgi bosqichida mamlakatning yoki turistlik markazning ijtimoiy tuzilishidan qat'iy nazar turizm sohasida turistlik faoliyatni amalga oshiruvchi bir qancha turli xildagi korxonalar, chunonchi: turizmni tashkillashtiruvchi tuoperator va turistlik agentliklar mavjud. Bundan tashqari turistlarni tashuvchi, mehmonxonalar va joylashtirish tizimining boshqakorxonalar, umumiy ovqatlanish, attraksionlar va ko'ngil ochar joylari, shuningdek, ular qatoriga bank sohasidagi muassasalar, sug'urta xizmati vaboshqalar kiradi.

Turizmning maxsus turlarida davolash muassasalari, o'qitish tizimi muassasalari hamda aniq turistlik mahsulotning maqsadlariga muvofiq keladigan

sport va boshqa muassasalar ishtirok etishlari mumkin. Butashkilotlarning barchasi bir-birlarini uyg'un ravishda to'ldirishi va iste'molchi uchun zarur bo'lgan hamda assortiment bo'yicha yetarli darajadagi barchaxizmatlarni ko'rsatadi.

Turizm tashkilotchilariga turizm sohasidagi ikki xil korxonalar mansubdir: turoperatorlar va turistik agentliklar. Bu korxonalar turizm xizmatining o'zi bilan bevosita shug'ullanmaydilar, balki faqat iste'molchi (turist) bilan bevosita xizmat ko'rsatuvchining o'rtasida vositachilik vazifasini bajaradilar. O'z navbatida ularning faoliyati - bu ham xizmat ko'rsatishdir. Fransiyaning turistik qonunchiligida bu korxonalarni ularning mohiyati va vazifasining harakteriga muvofiq ravishda turizm tashkilotchilari deb to'g'ri nomlaydilar.

Mehmonxona restorani ish faoliyati boshqa oddiy restoranlar ish faoliyatidan biroz farq qiladi. Restoran ish vaqti shunday tashkil etilishi kerakki, ushbu vaqt mehmonxonada joylashgan ko'pgina mehmonlar ehtiyojini qondirsin, hatto bu restoranga bazi hollarda foyda keltirmasa ham. Mehmonxona mehmonlarining 70% tushlik, 50% ga yaqini kechki ovqatni mehmonxona restoraniga qilmaydilar. Restoran daromadining uchdan ikki qismini chetdan kirgan xo'randa olib keladi. Bundan shuni xulosa qilish kerakki, mehmonxona restorani tashqaridan alohida kiradigan eshikka va avtomobillar to'xtash joyiga ega bo'lishi kerak.

XX asrning 50 yillarigacha mehmonxona restoraniga ikkinchi darajali foyda keltiruvchi manba deb qaralar edi. Bazida u mehmonxona egasiga ortiqcha yukdektuyulardi. Restorandan ko'rilgan zararni nomer fondidan keladigan foyda bilan qoplash mumkin deb hisoblanardi. Boshqa tarafdin mehmonxona mijoz restorandagi ovqatni sifati past deb hisoblab tashqarida ovqatlanar edi.

Lekin mehmonxonalaridagi joylashish darajasi pasayib borgan sari mehmonxona restoranlarining foyda keltiruvchi manba sifatida roli oshib bordi vahatto nomer fondidan oladigan foyda bilan tenglashdi. Shuning uchun mehmonxonadagi ushbu xizmat- mehmonxona restoraniga bo'lgan e'tibor tobora oshib, bitta mehmonxonaning o'zida maxsus restoranlar soni- milliy

oshxonalar, barlar, kofeteriyalar ko'payib bormoqda. Hozirda mehmonxona klassi qanchalik yuqori bo'lsa, u yerdagi restoranlar shunchalik ahamiyatlidir.

Mehmonxonaning bosh direktori odatda restoran ishini unchalik tushunmaydi, hattoki u har kun oshxonaga kirib ovqatlar tamini tatib ko'rsa ham, bu u uchun odatiy holdek tuyuladi. Shuning uchun ko'pgina hollarda mehmonxona restoranimalakali restoratorga ijaraga beriladi va ijara shartnomasiga mehmonxonamijozlari ehtiyojini qondiruvchi shartlar kelishiladi. Agar restoran mehmonxonastrukturasiga bo'lsa, u ovqatlantirish xizmatiga kiradi (Food and Beverage Department, Catering Department) va uni mehmonxona boshqaruvi tarkibiga kiruvchi direktor boshqaradi.

Mehmonxonada umumiy ovqatlantirish mustaqil boshqaruvga ega va uning reklama kampaniyasi mehmonxona reklamasidan alohida olib boriladi.

Ovqatlantirish xizmati direktoriga bevosita shef-povar, ovqatlantirish xizmatikontroli, metrdotel, banket menedjeri, bosh barmen, styuard bo'y sunadi. Agar restoran xaridlarni o'zi amalga oshirsa, uning shtatida Yana oziq – ovqatlar, vinova boshqa ichimliklarni xarid qiluvchi xodimlar ham kiradi. Mehmonxonadarestoranlar bir nechta bo'lsa, har qaysisining o'z direktori (hatto room service yaninomerda ovqat va ichimlik yetkazib beruvchi xizmatning ham) bo'ladi. mehmonxonada restoranlar bir nechta bo'lsa, har bir zal aniq imidjga (harxil milliy oshxonalar), zal intererlari menyu va mijozga mos kelishi kerak.

Restorandan tashqari har bir mehmonxona bir necha kichik ovqatlantirishkorxonalarini - barlar, kofeynyalar, bufetlar va b.ega. Kichik mehmonxonalardarestoran shef-povari menedjerlik funksiyasini ham bajaradi. Restoran biznesi bu unchalik oson biznes emas, bir qarashda muvaffaqiyat formulasi osondek: mazali ovqat, sifatli servis va oqilona narx siyosatlarining uyg'unligi.

Ammo bu uyg'unlikka erishish oson ish emas, chunki Yana boshqa parametrlarga ham e'tibor berish kerak bo'ladi (ovqatni tayyorlash vaqti, sanitariyame'yorlari, ishlab chiqarish harajatlari, mijozlar xohishi, raqobatchi restoranlar va boshqalar. Yangirestan ochayotganda boshqaruvchi bir necha

omillarga e'tibor berish kerak. Restoran joylashuvi ko'p hollarda uning kelajakdagi mijozlari portretini belgilab beradi: shaharning ishchan qismida joylashgan restoran mijozlari u yerdapiyoda kelishadi, bu shahar tashqarisida joylashgan restorandan qaysikim faqat mashinada borish mumkin bo'lgan restorandan farq qiladi. Restoran boshqaruvchisi bu omilni hisobga olib uning intereri, servisi, oshxonasi va menyusi mijozlarga mos kelishiga harakat qilishi kerak.

Restoran dizayni, bino hajmi va shakli, devor va shiftlar rangi, mebel, xullas barcha-barchasi restoran mijozlari va menyusiga mos kelishi kerak. Psixologik tadqiqotlar shuni ko'rsatmoqdaki, agar restoran devorlari qizil-jigarrang rangda bo'alganda ovqat ko'p istemol qilinarkan. Restoranlar qanchalik ko'p bo'lsa ularni jihozlash variantlari ham shunchalik ko'p. Masalan, restoranda o'z-o'ziga xizmat ko'rsatish bo'lsa- u yerda katta, yorqin xona va qattiq stellar bo'ladi. Agar yuqori darajali restoran bo'lsa- u yerda nimqorong'ulik, alohida xonalar, yumshoq mebellar, gullar va devorda rasmlar va bo'ladi.

Yana «muhit» ya'ni «atmosfera» degan murakkab tushuncha mavjudkim, unafaqat dizayn va dekor balki stollarning joylashuvi, ofitsiantlarning kiyimi, xizmat ko'rsatish tempi, mijozlar kiyimi, musiqa, shovqin darajasi, bino harorati, tozalik va boshqa omillar yordamida yaratiladi. Hamma narsa restoran mo'ljallangan mijozlar tipi, marketologlar tilida aytganda restoran faoliyat ko'rsatayotgan bozor segmentiga bog'liq. Faqat haddan tashqari bachkanalikdan qochish lozim restoranda juda ham tinch yoki shovqin, juda ham yorqin yoki qorong'u, juda ham tor yoki keng bo'lmasligi kerak. Tashish tizimi turistlarni piyoda bir joydan boshqa bir ikkinchi joyga o'tkazishni istisno qilganda, texnik taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi:

- fillar, tuyalar, otlar, eshaklar, itlar kabi hayvonlardan;
- er usti mexanik harakat vositalaridan (velosiped, avtomobil, avtobus, temir yo'ldan);
- havoda harakatlanish vositalaridan (havo transportidan);
- suv transportidan - qayiq, sollar, daryo va dengiz suv usti va ostikemalaridan foydalanish asosida turg'un ravishda shakllanadi.

Turistlarni bir joydan boshqa joyga olib boruvchilar ish bosqichlariga, ularning turistlik mahsulot tarkibidagi o'rniga muvofiq ravishda asosiy vayordamchitashuvchilarga bo'linadi. Ish bosqichlariga ko'ra ularni quyidagilarga bo'lish mumkin: transfer, ko'p hollarda avtobus, turistlarni jo'natish, joyidagi asosiy tashuvchiga yetkazib berish, turistlarni aeroport terminalidan, vokzaldan mehmonxonaga eltish hamda xuddi shu operatsiyalarni turistlar vatanlariga qaytayotganlarida bajarish;

- turistlarni borishlari kerak bo'lgan uzoq masofalarga eltish;

- avtobus va temir yo'l turlarida marshrut bo'yicha olib yurish, bunda tashish bosqichi aslida turning zaruriy va asosiy elementi bo'ladi, tashish vositalari esa, ko'pincha tunash joylariga aylanadi, bunga dengiz sayohatiga doir marshrutlarni ham kiritish mumkin;

- ekskursion marshrutlardagi tashish, masalan, shahar bo'yicha, tematik bog'lardagi va boshqa tashishlar;


- shopping turlar uchun yuk tash.

Joylashtirish - turizm industriyasining eng muhim elementlaridan bir hisoblanadi. Joylashtirish (tunash) bo'lmasa turizm ham bulmaydi. Bu turistlarni qabul qilib olish va o'z turistlik resurslarini ishlatishdan qat'iy nazar va kata daromad olishga tashna bo'lgan har qanday turistlik region va markaz iqtisodiyotining talabidir. Mehmonxona industriyasi mexmondo'stlik tizimi-ning mohiyatidir. Uinsoniyat tarixidagi har qanday ijtimoiy formatsiyaga xos bo'lgan mexmonni hurmat qilish, uni qabul qilib olish va xizmat ko'rsatish tantanalari kabi eng qadimgi an'analaridan kelib chiqadi.

Shuni ta'kidlash kerakki, mutlaqo transit turistlar va ekskursion xizmat ko'rsatish hisobiga yashaydigan turistlik markaz va joylar mavjud. Lekin bu holda yaxshi foyda olish uchun turistlik mahsulot tovarni tashkil qiluvchi xususiyatga ega bo'lish kerak. Mehmondo'stlikning (mehmon qabul qilish) industriyasi - bu mintaqa yoki turistlik markaz xo'jaligining eng kuchli tizimidir va turizm iqtisodiyoti-ning muhim tarkibiy qismidir. Mehmon qabul qilish industriyasini kollektiv va individual joylashtirishning turli xildagi otellar, mehmonxonalar,

motellar, yoshlarning xostel vayotoqxonalari, appartomentlar, turistik xutorlar, shuningdek, turistlarni joylashtirishda ishtirok etvchi xususiy sektor vositalarini tashkil etadi.

1.3.1-Jadval. Turistlar va sayyoxlarni joylashtirish vositalari



Mehmonxonalarni quyidagi tipologiyasi jahon amaliyotida ularni har birinibatafsil aniq tafsiloti bilan ifodalangan ko‘rinishi quyidagi jadvalda aks ettirilgan.

Turistlar va sayyohlarni joylashtirish vositalari

Mehmonxonalarningxili: Tavsifi

Otel-lyuks.O‘z sig‘imi bo‘yicha mehmonxonani mazkur tipi kichik yoki o‘rta korxonalar safiga kiradi. Odatda shahar markazidajoylashadi. Yaxshigina ta’lim olgan personal-xodimkonferensiya, xizmat uchrashuvlari ishtirokchilaribiznesmenlar bo‘lib hisoblangan talabchan mijozlarga servisnijuda yuqori darajasini ta’minlaydi. Barcha mumkin bo‘lganxizmat turlarini o‘z ichiga oluvchi nomerlarni narxlari anchaqimmat turadi.

O‘rta (klass)bo‘g‘inimehmonxona. O‘z sig‘imi bo‘yicha oteldan katta (400-200 o‘rinli) shaharmarkazida yoki shahar atrofida joylashgan. Yetarli darajadakeng xizmatlar turini taqdim etadi, ulardagi narxlar ujoylashgan mintaqa darajasiga teng yoki undan bir munchayuqoriroq bo‘lishi mumkin. Biznesmenlar, xususiy turistlar,kongress, konferensiya ishtirokchilarni va hakoazolarni qabulqilishi mumkin.

Mehmonxonaapartament(apart-otel).Sig‘imi bo‘yicha kichik yoki o‘rta o‘lchamli (400 o‘ringacha)yirik shaharning doimiy bo‘lmagan aholisi uchun xosdir.Vaqtinchalik turar joy sifatida ko‘p yillarda o‘z-o‘ziga xizmatko‘rsatishdan foydalaniladigan kvartira (ijara) tipidan tashkiltopadi. Mehmonxonani mazkur tipida narxlar qoidaga ko‘rajoylashuv muddatiga bog‘liq ravishda (turlanib) turadi. Uzoqmuddatga to‘xtab o‘tuvchi oilaviy turistlar, biznesmenlar vaijarachilarga xizmat ko‘rsatadi.

Iqtisodiybo‘g‘in (klass)mehmonxonasi.Kichik yoki o‘rta sig‘imli korxonalar (150 o‘rinli va undanortiq) magistral yo‘l yoqalarida joylashadi. Xizmatlarto‘plamini cheklanganligi, oddiy va tez xizmat ko‘rsatish bilanajralib turadi. Iste‘molchilari – ko‘rsatilgan (istiye‘molqilingan) xizmatlar uchun haqiqiy to‘lovni amalga oshirishgaintiluvchi va to‘liq pansionga muhtoj bo‘lmagan biznesmenlar,xususiy turistlar uchun mo‘ljallangan.

Otel-kurort. O'z sig'imi bo'yicha mehmondorchilikni to'liq xizmatlarga o'plamini taklif etish bilan ajralib turadigan korxonalar. Bundantashqari, bu yerda parhez taomlar va mahsus tibbiy xizmat ko'rsatish kompleksini olish mumkin. Kurort mintaqalarida joylashadi.

Motel. Shahar tashqarisida, shahar bo'yida, magistral yo'l yoqalarida joylashgan oddiy bir yoki ikki qavatli binolar. Bu kichik yoki o'rta korxonalar (400 o'ringacha). Kam sonli xodimlarning o'rta darajali xizmat ko'rsatishi harakterlidir. Mijozlari bo'lib havaskor avtoturizmga urg'u berilgan turli kategoriyadagi turistlar hisoblanadi. «Tunash va nonushta» xilidagi xususiy mehmonxona AQShda keng tarqalgan. Bu mehmonxona kichik (ba'zida o'rta) sig'imli. Shahar atrofida yoki qishloq joylarida joylashgan. Xizmat ko'rsatishga, qoidaga ko'ra, nonushta va uy sharoitidagi yengil tamaddi kiradi. Mijozlari bo'lib uy sharoitiga intiladigan tijorat chilar va yo'nalishdagi turistlar hisoblanadi.

Otel-garni. Mijozlarga cheklangan miqdordagi xizmatlarni: joylashuv va kontinental nonushtani taqdim etuvchi korxonalar.

Pansion. Xizmatlar darjasini cheklanganligi va oddiy standartlik korxonalaridir. Otel-garnilardan farqli ravishda bu yerda nonushta, tushlik va kechki ovqat (to'liq pansion) taqdim etiladi. Biroq ovqatlanish xizmati faqat mijozlargaгина ko'rsatiladi.

Mehmonxonahovli. Otellardan sig'imi, xizmat ko'rsatishi, sodda standartligi bilan ajralib turuvchi korxonalar, uchrashuvlar va mehmonlar tashrifi uchun qator jamoalarini mavjud emasligi bilan ajralib turadi. Mehmonxonahovli tarkibi (strukturasi)da restoran yoki barm mavjud bo'lishi majburiydir.

Rotel. Tunash uchun mo'ljallangan kreslolar joylashtirilgan bir yoki ikki o'rinli vagonlardan tashkil topuvchi harakatlanadigan mehmonxonadir. Xojatxona, oshxona, muzlatgich va keyinish uchun mo'ljallangan xonalar mavjud.

Botel. Mos ravishdagi jihozlangan kichik kema sifatida foydalanuvchi suvdagi uncha kata bo'lmagan mehmonxonalar.

Flotel. Ko'p hollarda «suvdagi kurort» deb nomlanuvchi kata mehmonxonalar. Turistlarga keng turdagi xizmatlarni taqdim etuvchi shuning nomlari: basseyn, suv

chang'ilari, baliqovlash uchun sharoit yaratadigan, suv ostida suzish, suv ostiovi, trenajer zallari, konferensiya va kongresslar uchun zallar, kutubxona, turli-tuman ta'minotlar (telefon, telefaks, teletayn, televizor, va x.k). So'nggi vaqtlarda turlarga o'qituvchikongress-kruizlar, kongress-turlar, biznes-turlarni tashkil etish uchun foydalaniladi.

Flaytel. Agromehmonxona yoki «uchuvchi otel». Favqulodda qimmatva mehmonxonani kamyob turi hisoblanadi. Qo'nishmaydonchasi va meteorologik xizmat aloqalari bilan jihozlangan.

Ovqatlanish har qanday insonning tabiiy ehtiyojidir. Ovqatlanish, turizm daodatdagi oddiy va zaruriy ehtiyojdan tashqari yana ko'ngil ochish va mahalliy madaniyatning, xususan, gastronomiyaning muhim tarkibiy qismini anglash sifatida ham karaladi. Milliy taom xalq madaniyatining muhim qismi bo'lib, o'zida aniq ajralib turuvchi xususiyatlarni mujassamlantiradi, bilish jarayonining elementiva xuzur-halovat olishning vositasi hisoblanadi. Umumiy ovqatlanish tizimi turistik markaz yoki mintaqaga tashrif buyuruvchilarning ehtiyojlarini qondiruvchi turli toifadagi restoranlar, barlar, kafehamda oshxonalar, tez ovqatlanish va o'ziga-o'zi xizmat qilish punktlaridan tashkil topadi. Ovqatlanishning turi - ertalabki nonushta, yarim pansion, to'liq pansion doimo turistik xizmatlari ko'rsatish tarkibida belgilangan bo'ladi.


Yarim pansionda (ikki marta ovqatlanish) ertalabki nonushta va tushlik yoki kechki ovqat nazarda tutilgan bo'ladi. Pansion - bu uch martalik ovqatlanishdir. Qimmatbaho xizmat ko'rsatish variantlarida butun kun davomida va xattoki tunda istalgan vaqtda va istalgan miqdorda ovqatlanish hamda ichimliklar (spirtli ichimliklarni ham qo'shib hisoblaganda) ichish imkoniyati nazarda tutilishi mumkin. Shuningdek, taklif etilayotgan ovqatning zichlik gradatsiyasi (miqdori bo'yicha) va ko'pincha kaloriyaliligi hamda xizmat ko'rsatishning turlari belgilangan bo'ladi. Masalan, nonushta xillarining miqdori tashrif buyurilayotgan mamlakat yoki mintaqaning an'analari bog'liq bo'ladi (yevropacha, kontinental, inglizcha, amerikacha, va x.k.). Mexmonlarga xizmat ko'rsatishning turi ham muhimdir (shvedcha dasturxon).

Umuman olganda, sayyoh ertalab yengil ovqat tanovvul qilishi, ya'ni yengilnonushta qilishi qabul qilingan. Shuning uchun, odatda, mehmonxonalarining ko'pchisi ovqatlanish punktlariga yoki restoranlarga ega bo'lib, mehmondo'stlikning zaruriy tarkibiy qismi hisoblangan xizmat ko'rsatishlarni taklif qiladi, bu esa ko'phollarda joylashtirishning qiymatiga kiritilgan bo'ladi. Mehmonxona qoshidagirestoranda ovqatlantirish joylari mavjudligining ko'rsatkichi juda muhim. Agar bu ko'rsatkich mavjud nomerlar fondi miqdoriga mos bo'lsa yana ham yaxshibo'ladi.

Nonushta masalasida eng yaxshisi shundaki, turist mehmonxonadantashqariga chiqmasligi kerak, garchi ovqatlanish punktlari nazarda tutilmagan, turistlarga esa yaqinroqda joylashgan restoranda ovqatlanishi mumkinligi tavsiyaqilingan joylashtirish vositalari ham mavjud bo'lsada. Bunday holda joylashtirish xizmatining qiymati keskin pasayib ketadi.

Ovqatlantirishni tashkil etish tibbiy sohani ham hisobga olgan bo'lishi kerak. Noto'g'ri ovqatlanish, yomon (qoidalarga rioya qilmagan holda) tayyorlangan ovqat zaharlanishga olib kelishi mumkin. Masalan, 40 % gacha turistlar Misr va Hindistonga borganlarida diareyadan aziyat chekadilar. Ayniqsa, ko'chadagimayda sotuvchilar qo'lidagi suv va ovqat, shuningdek sifatsiz restoranlardagitaomlar xavflidir. Ayrim toifadagi turistlar ruhida diniy belgilar bo'yicha umumiy qabul qilgan cheklanishalar (cho'chqa go'shtini iste'mol qilmaslik, ro'za tutish), vegeterianlarning o'ziga xos talablari, bolalar ovqati talablarini ham hisobga olish kerak. Ovqatlanishga bo'lgan bunday talablarning o'ziga xosligini turistlar tursotib olayotganlarida ko'rsatishlari kerak. Bajarishning imkoniyati bo'lmagan taqdirda turdan voz kechish kerak.

TURIZM INDUSTRIYASINING TASNIFI



6. Turistlarni joylashtirish



- 6.1 Otellarga, mehmonxonalarga
- 6.2 Motellarga
- 6.3 Pansionatlarga
- 6.4 Kempinglarga
- 6.5 Palatkalarga
- 6.6 Rotellarga
- 6.7 Botellarga
- 6.8 Sanatoriylarga
- 6.9 Flotellarga
- 6.10 Xostellarga
- 6.11 Otel-klublarga
- 6.12 Turbazalarga
- 6.13 Turistik uylarga
- 6.14 Appartomentlar

7. Turistlarni ovqatlantirish



- 7.1 Kafelarda
- 7.2 Barlarda
- 7.3 Restoranlarda
- 7.4 Sharq taomlari oshxonalarida
- 7.5 G'arb taomlari oshxonalarida
- 7.6 Yevropa taomlari oshxonalarida
- 7.7 Milliy taomlar oshxonalarida
- 7.8 Pavilonlarda

8. Turistlarni sayohat joylari bilan tanishtirish



- 8.1 Tarixiy-me'moriy obidalar bilan
- 8.2 Mustaqillik inshootlari bilan
- 8.3 Arxeologik qazilmalar bilan
- 8.4 G'aroyib voqealardan qolgan qoldiqlar bilan
- 8.5 Ko'rkam bog'lar bilan
- 8.6 Xushmanzara tog'lar bilan
- 8.7 Orombaxsh suv havzalari bilan

9. Turistlarning bo'sh



- 9.1 Har xil sport inshootlarida
- 9.2 Kinoteatlarda
- 9.3 Teatlarda
- 9.4 Konsertlarda
- 9.5 Har xil tinch-osuda joylarda

10. Turizm industriyasi



Bu mexmonxonalar va joylashti-rish vositalari, transport vosita-lari, umumiy ovkatlanish ob'ekt-lari, kungil ochish ob'ektlari va vositalari, bilim orttirish, davo-lash, soglomlashtirish, sportga doir, diniy – marosimchilik, ishbilarmonlikka va boshka maksadlarga molik vositalar, turizm operatorlari va turizm agentligini amalga oshiruvchi, shuningdek, turistik - ekskursiya va gid-tarji-monlik xizmat-larini taklif kiluvchi tashkilotlar majmuidir.

11. Turoperatorlar



Turoperatorlar turistik mahsulotni shakllantirishini uni bozor tomon haraktaini, shuningdek, realizatsiya qilinishini taminlovchi yuridik shaxsdir.

12. Turistik agentliklar (turagent)



Bu iste'molchiga - turistga yoki mijozlarga ayrim turistik xizmatlar va turlarni chakana sotish funksiyasini amalga oshi-ruvchi korxonona yoki jismoniy shaxsdir

13. Transport xo'jaligi



-transfer, kup xollarda avtobus, turistlarni junatish joyidagi asosiy tashuvchiga yetkazib berish, turistlarni aeroport terminalidan, vokzaldan mexmonxonaga eltish hamda xuddi shu operatsiyalarni turistlar vatanlariga qaytayotganlarida bajarish;
- borishlari kerak bulgan uzok masofalarga eltish;
- avtobus va temir yul turlarida marshrut buyicha olib yurish, bunda tashish boskichi aslida turning zaruriy va asosiy elementi buladi, tashish vositalari esa, kupincha tunash joylariga aylanadi, bunga dengiz sayoxatiga doir marshrutlarni ham kiritish mumkin;

**14. Mehmonxona
xo'jaligi**



Joylashtirish vositalari va tizimi, ya'ni asosiy vositalar - bular vaktincha kelib ketuvchilarga (mijozlarga) turli darajada xizmat kursatish bilan bogliq xolda ularni kabul kilish va tunashlarini tashkil etish buyicha maxsus moslashtirilgan turli xildagi va kurinishdagi (chayladan tortib to ulkan mehmonxonalargacha bulgan) binolardir

II-BOB. O‘ZBEKISTONDA ICHKI TURIZM RIVOJLANISHINING ASOSIY YO‘NALISHLARI

2.1. O‘zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishning huquqiy asoslari

Mamlakatimizda ish o‘rinlari yaratish, iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish, hududlarni jadal rivojlantirish, valyuta tushumlarini ko‘paytirish, aholi daromadlari va turmush darajasini oshirish kabi eng muhim ijtimoiy-iqtisodiy vazifalarni yaqin istiqbolda hal qilish uchun keng salohiyatga ega bo‘lgan turizm sohasini rivojlantirish borasida izchil chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma’noda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 16 avgustda «2018-2019 yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi qarori qabul qilindi.

Qaror bilan sohada me‘yoriy-huquqiy tartibga solishni takomillashtirish va xalqaro hamkorlikni rivojlantirish, O‘zbekistonga sayohatlarni arzonlashtirish, yurtimizning barcha hududlarida turizmni va soha bilan bog‘liq infratuzilmani rivojlantirish, turistik mahsulotlarni diversifikatsiya qilish va yangi turizm ob‘ektlari tashkil etish, shuningdek, milliy turizm mahsulotlarini ichki va tashqi bozorlarda faol va kompleks ilgari surishga qaratilgan 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi.

Ayni paytda mamlakatimiz hududlarida zamonaviy turizm infratuzilmasini yaratish chora-tadbirlariga alohida e‘tibor qaratilgan. Shu maqsadda Dasturga muvofiq, Andijon viloyati Xonobod shahrida dam olish hududlari, Jizzax viloyati Forish va Arnasoy tumanlarida Aydar-Arnasoy ko‘llari sohilida beshta yangi zamonaviy dam olish hududlari tashkil etish, Qashqadaryo viloyati Shahrisabz va Qarshi shaharlarida to‘rt yulduzli mehmonxonalar, Toshkent viloyati Bo‘stonliq tumani Chimyon tog‘ massivida mehmonxona majmuasi barpo etish, shuningdek, Navoiy viloyatida To‘dako‘lning janubiy sohilida ichki turizm va Aydarko‘l sohillarida xorijlik turistlar uchun plyajlar tashkil etish ko‘zda tutilgan.

Shu bilan birga, qarorda O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida 2018-2019 yillarda turizmni rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-

tadbirlar dasturiga kiritilgan tadbirlarning amalga oshirilishini muntazam o'rganish tizimini joriy qilish belgilangan. Shu maqsadda:

- Dastur ijrosi ustidan tizimli nazoratni amalga oshirish, vazirlik va idoralarning bu boradagi faoliyatini muvofiqlashtirish, yurtimizda turizm sohasi rivojiga to'sqinlik qilayotgan masalalarni tezkor ko'rib chiqish va hal qilish uchun Vazirlar Mahkamasi huzurida Muvofiqlashtiruvchi kengash tashkil etildi;

- rejalashtirilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida, sifatli va to'liq ijro etilishini ta'minlash maqsadida Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari rahbarligida faoliyat yuritadigan turizmni rivojlantirish bo'yicha hududiy kengashlar tashkil etildi.

Qarorda turizmni rivojlantirish bo'yicha quyidagi chora-tadbirlarni bajarishga yo'naltirilgan qator topshiriqlar belgilangan:

- O'zbekistondagi muqaddas qadamjolarga ziyorat turizmi yo'nalishi bo'yicha sayyohlarni jalb qilish, bunda logistika, jumladan, charter reyslarni tashkil etish masalalarini hal qilish;

- Buxoro va Samarqand shaharlaridagi turizm hududlari tajribasi asosida Urganch, Toshkent shaharlari va Farg'ona viloyatida turizm hududlari, shuningdek, Toshkent viloyati Bo'stonliq tumanida tog' klasterlarini bosqichma-bosqich tashkil etish;

- tashkil etilayotgan turizm hududlari va tog' (tog'oldi) turizm klasterlariga chet el sarmoyadorlarini jalb qilish, shuningdek, yangi mehmonxonalar qurish uchun yurtimizga yetakchi mehmonxona brendlarini taklif qilish yoki mamlakatimizdagi mehmonxona xo'jaliklarini ular boshqaruviga topshirish.

Shu munosabat bilan xorijlik turistlar uchun viza tartibotini soddalashtirish va ziyorat turizmini tashkil etish bo'yicha takliflarni muntazam kiritib borish ko'zda tutilmoqda. Mazkur vazifa ijrosini ta'minlash maqsadida xorijlik fuqarolar uchun viza va ro'yxatga olish tartibini bosqichma-bosqich soddalashtirish bo'yicha takliflarni ushbu davlatlar bilan ikki tomonlama munosabatlarning rivojlanish darajasidan, jahon turizm bozorining kon'yunkturasi hamda xalqaro va mintaqaviy

vaziyatdan kelib chiqqan holda tayyorlash bilan shug'ullanuvchi doimiy faoliyat yuritadigan ishchi guruh tuzilmoqda.

Qarorning muhim jihatlaridan biri, uning turizm sohasida tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun qulay sharoitlar yaratishga qaratilganidir. Shu maqsadda:

– tadbirkorlik sub'ektlariga yangi mehmonxonalar va turizm infratuzilmasining boshqa inshootlarini qurish, mavjudlarini modernizatsiya qilish uchun uzoq muddatli (15 yilgacha) kreditlar ajratish amaliyoti joriy qilinmoqda, bunda kredit va foizlarni qoplash uchun mehmonxonalarning moliyaviy tushumi va mavsumiy sharoitidan kelib chiqadigan talablar taqdim qilinmoqda;

– tadbirkorlik sub'ektlariga chet el valyutasidagi mablag'larni o'tkazish bo'yicha ko'rsatiladigan xizmatlar, terminallar ijarasi, erkin konvertatsiya qilinadigan valyutadagi naqd pullarni inkassatsiya qilish va chet el valyutasida operatsiyalar amalga oshirish bilan bog'liq boshqa xizmatlar uchun yig'implarning (komissiya to'lovlarining) maqbul miqdorlari belgilanmoqda;

– 2022 yil 1 yanvarga qadar mehmonxonalar boshqaruv xodimi sifatida jalb qilingan malakali xorijlik mutaxassislarining mehnatiga haq to'lash fondidan yagona ijtimoiy to'lov to'lashdan, shuningdek, mehmonxonalarga boshqaruv xodimi sifatida jalb qilinadigan malakali xorijlik mutaxassislarining daromadlari jismoniy shaxslarning daromad solig'idan ozod etilmoqda.

Ushbu qaror mamlakatimiz turizm sohasining yanada rivojlanishiga yangi sur'at baxsh etib, unda belgilangan chora-tadbirlar ijrosiga xorijlik turistlar oqimi va turizm xizmatlari eksportini kengaytirish, tarmoqda yangi ish o'rinlari yaratish asosida aholining bandlik darajasini oshirish, mehmonxonalar, sayyohlarni joylashtirishning boshqa vositalari va turizm faoliyati sub'ektlari sonining ko'payishiga xizmat qiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 3-fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta'minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida quyidagi huquqiy me'yorlar belgilab qo'yilgan:

1. «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo'yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi tasdiqlash;

2. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi, O'zbekiston yoshlar ittifoqi, O'zbekiston Kasaba uyushmalari federatsiyasi kengashi, O'zbekiston Xotin-qizlar qo'mitasi, «Mahalla» xayriya jamoat fondi va O'zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo'llab-quvvatlash «Nuroniylar» jamg'armasi:

a) Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda:

- bir oy muddatda turizm infratuzilmasining bandligini hisobga olgan holda hududlar hamda jalb etilgan tashkilotlar miqyosida turlar va ekskursiyalarni tashkil qilish jadvallarini tasdiqlash;

- yoshlarni turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish bo'yicha axborot-targ'ibot tadbirlarining muntazam o'tkazilishini ta'minlash;

- turistlar oqimining mavsumiyligi hamda hududlarning turizm infratuzilmasi to'liq jalb etilishini inobatga olib, shu jumladan turizm faoliyati subyektlarini jalb etgan holda Amaliy chora-tadbirlar rejasining samarali amalga oshirilishi uchun zarur choralar ko'rish;

b) Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi, O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi va O'zbekiston Matbuot va axborot agentligi bilan birgalikda «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» ichki turizmni rivojlantirish dasturini (keyingi o'rinlarda – Dastur) amalga oshirish doirasida ommaviy axborot vositalarida hamda Internet tarmog'ida, shu jumladan respublikaning barcha shaharlarida «O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!» shiori ostida tashqi reklama vositalarini (shit-bannerlar hamda tashqi ekranlar uchun roliklar) tayyorlash va o'rnatish yo'li bilan ichki turizmni keng targ'ib qilish tadbirlari o'tkazilishini ta'minlash;

3. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan joylashtiriladigan tashqi reklama ijtimoiy reklamaga tenglashtirish;

4. Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan kelishilgan holda 2018-2020-yillarda respublikaning har bir hududida kamida 100 ta joy hisobga olinib markaziy ko‘chalar, aholi gavyum joylar hamda trassalarda joylashgan shitlar, ekranlarda ichki turizmga oid tashqi reklama beg‘araz o‘rnatilishini ta’minlash;

5. Belgilab qo‘yilsinki, Dastur doirasida O‘zbekiston Respublikasi fuqarolariga turistik-ekskursiya turlari uchun to‘lovlar bilan bog‘liq xarajatlar:

- ta’lim muassasalari o‘quvchilari uchun – o‘z mablag‘lari va O‘zbekiston yoshlar ittifoqi mablag‘lari hisobidan;

- tashkilotlar xodimlari uchun – o‘z mablag‘lari, ish beruvchi mablag‘lari (byudjet tashkilotlari uchun – tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag‘lari) va jamoaviy shartnomalarga muvofiq boshqa mablag‘lar hisobidan;

- yetim bolalar, kam ta’minlangan oilalar farzandlari, nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun ularning umumiy sonidan kamida 20 foizi qamrab olinishi ta’minlangan holda – xayriya mablag‘lari, shuningdek, har yili O‘zbekiston Respublikasi Davlat byudjeti ko‘rsatkichlarida nazarda tutilgan mablag‘lar hisobidan;

- pensionerlar hamda urush va mehnat faxriylari uchun – o‘z mablag‘lari, O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash «Nuroniy» jamg‘armasining mablag‘lari va xayriya mablag‘lari hisobidan;

- faol xotin-qizlar uchun – o‘z mablag‘lari, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi mablag‘lari, «Mahalla» xayriya jamoat fondi mablag‘lari va xayriya mablag‘lari hisobidan;

- mahalla faollari va yosh oilalar uchun – o‘z mablag‘lari, «Mahalla» xayriya jamoat fondi mablag‘lari hisobidan tenglik asosida qoplash.

Mazkur Dasturda ishtirok etish ixtiyoriy ekanligi belgilab qo‘yilgan.

6. Davlat organlari va boshqa tashkilotlar rahbarlariga:

jamoaviy shartnomalarga rag'batlantirish chorasi sifatida davlat organlari va boshqa tashkilotlarning byudjetdan tashqari mablag'lari hisobiga o'z xodimlarining kamida 10 foizini oila a'zolari bilan birgalikda har yili dam olishga (ichki turizmga) yuborishni nazarda tutadigan xodimlarning jamoaviy va oilaviy dam olishini tashkil qilish normasini kiritish;

- xodimlarga mehnat qonunchiligiga muvofiq ular uchun qulay bo'lgan vaqtda sayohat qilish va dam olish uchun ta'tilning foydalanilmay qolgan qismi hisobidan dam olish kunlari (otgul) berish;

Dastur tadbirlarini amalga oshirish doirasida har yili 30-dekabrgacha davlat organlari va boshqa tashkilotlar xodimlari uchun turistik-sayohat turlarini tashkil qilish jadvallarini tasdiqlash tavsiya etilgandir.

7. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi davlat organlari va boshqa tashkilotlarga guruhli sayohatlarni tashkil qilish uchun mahalliy turoperatorlar bilan o'zaro hamkorlik qilish, shuningdek, mehmonxona va transport tashkilotlariga tashkil etilgan turlar, shu jumladan yashash va kelib-ketish (uchib borish) uchun imtiyozlar taqdim etish bo'yicha takliflar yuborishda yordam ko'rsatishi ko'zda tutilgan

8. 2018-yil 10-fevraldan boshlab 3 yil muddatga quyidagi tartib joriy etilishi kerakligi ham aytib o'tilgan, unga ko'ra:

- ish beruvchining turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan subyektlardan xodimlar va ularning oila a'zolari uchun respublika bo'ylab turistik yo'llanmalarni sotib olish xarajatlari xodimning daromadi sifatida ko'rib chiqilmaydi hamda yuridik shaxsdan olinadigan foyda solig'ini hisoblab chiqishda chegirib qolinishi lozim;

- jismoniy shaxslarning soliqqa tortiladigan daromadlari O'zbekiston Respublikasi bo'ylab turistik yo'llanmalarni turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan subyektlardan sotib olishga yo'naltirilgan xarajatlar summasiga kamaytiriladi. Bunda turistik yo'llanma (ayirboshlanadigan vaucher), avia va temir yo'l chiptalari, avtotransport tashkilotlarining hisob-

fakturalari (chiptalari) va joylashtirish vositalari cheklari tasdiqlovchi hujjatlar hisoblanadi;

-turizm sohasida faoliyat ko'rsatadigan subyektlarning soliq solinadigan bazasi O'zbekiston turizm brendi va "Uzbekistan.travel" sayti reklamasi bo'lgan bosma mahsulotlarni (xaritalar, risolalar, bukletlar, flayyerlar va boshqalar), suvenir va qadoqlash mahsulotlarini (sumkalar, paketlar, maktab daftarlari, yorliqlar, g'iloflar, kiyim-kechaklardagi va oshxona anjomlaridagi yozuvlar) tayyorlash va chop etishga yo'naltiriladigan xarajatlar summasiga kamaytiriladi.

9. Tijorat banklariga O'zbekiston Respublikasi fuqarolariga turizm sohasida faoliyat ko'rsatish bo'yicha litsenziyaga ega bo'lgan subyektlardan O'zbekiston Respublikasi bo'ylab sayyohlik turlarini sotib olish uchun 10 million so'mgacha iste'mol kreditlarini ajratish va kreditni ish haqi hisobidan qoplash imkoniyatini berish tavsiya etildi.

10. Yana turizm blan bog'liq bir qancha buyruqlar belgilandi:

-turizm obyektlari (me'moriy yodgorliklar va boshqalar) hamda infratuzilmasi (mehmonxonalar va boshqa joylashtirish vositalari, turistik yo'nalishlar va boshqalar) joylashgan joylarning belgi-ishoralari va ko'rsatkichlarini o'z ichiga olgan tematik turistik xaritalar adadini ko'paytirish va ularni tarqatishga kartografiya ishlarini amalga oshirish uchun litsenziya (ruxsatnoma) olinishi talab etilmaydi;

- turistlarga xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar (davlat muzeylari, galereyalar, madaniy meros obyektlari va qo'riqlanadigan tabiiy hududlar ma'muriyatlari va boshqalar) o'z faoliyatidan tushadigan tushumlarning kamida 5 foizini o'z faoliyati hamda taqdim etayotgan turizm xizmatlari bayon etilgan reklama-tarqatish materiallarini o'zbek, rus va ingliz tillarida tayyorlash va adadini ko'paytirish uchun majburiy tartibda yo'naltiradi. Bunda ushbu maqsadlarga yo'naltirilgan xarajatlar summasi bu tashkilotlarning soliqqa tortiladigan bazasidan chiqarib tashlanadi.

11. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi

bilan kelishgan holda turizmni rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega tuman va shaharlarda joylashgan hamda asosan muhandislik kommunikatsiyalar bilan ta'minlangan foydalanilmayotgan yer uchastkalarini 2-ilovaga muvofiq ro'yxat bo'yicha uch oy muddatda xatlovdan o'tkazsin hamda keyinchalik O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi xulosasiga asosan har bir hududda umumiy maydoni kamida 20 gektar bo'lgan 20 ta yer uchastkasi hisobidan kelib chiqib, turizm sohasidagi loyihalarni (mehmonxonalar, mehmonxona uylari, kempinglar, motellar va boshqa joylashtirish vositalari, tematik xiyobonlar, muzeylar, galereyalar va boshqa inshootlar qurish) amalga oshirish maqsadida tadbirkorlik subyektlari hamda potensial investorlarga taqdim etish uchun ajratishi kerakligi e'tirof qilib o'tilgan.

12. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan tanlab olingan foydalanilmayotgan yer uchastkalarida 2018-2022-yillarda turizm infratuzilmasini tashkil etish doirasidagi xarajatlar:

- yangi loyihalar (maketlar)ning dizayn-eskizlarini ishlab chiqish uchun – byudjetdan tashqari Turizm sohasini qo'llab-quvvatlash jamg'armasining mablag'lari;

- muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlariga ulanishga ruxsat beruvchi hujjatlarni olish uchun – tegishli tumanlar (shaharlar) mahalliy byudjetlari mablag'lari hisobidan qoplanishi belgilab qo'yildi.

13. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi:

- O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirligi hamda boshqa manfaatdor vazirlik va idoralar bilan birgalikda uch oy muddatda turistik yig'imlar, mehmonxona xizmatlarini sertifikatlash hamda joylashtirish vositalarining javobgarlik qoidalarini saqlab qolgan holda, tashrif buyuruvchilarni ro'yxatga olish bo'yicha maxsus elektron avtomatlashtirilgan dasturda joylashtirish vositalari orqali xususiy uylarga (xonadonlarga) mehmonlarni vaqtinchalik ro'yxatdan o'tkazish tartibi joriy etildi;

- turizm toifasiga oid mehmonxonalar va mehmonxona uylarining namunaviy loyihalarini, shu jumladan xorijiy loyiha tashkilotlaridan byudjetdan tashqari

Turizm sohasini qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi mablag‘lari hisobidan sotib olsin va keyinchalik ushbu loyihalarni turizm infratuzilmasi obyektlarini qurish tashabbusini ko‘rsatgan tadbirkorlik subyektlariga beg‘araz taqdim etsin. Bunda namunaviy loyihalarni muayyan hududga biriktirish O‘zbekiston Respublikasi Arxitektura va qurilish davlat qo‘mitasining hududiy bo‘linmalari tomonidan beg‘araz asosda ta‘minlanadi.

14. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasining ichki turizmni yanada rivojlantirish hamda turizm infratuzilmalarini takomillashtirish maqsadida hududlarda kichik turizm zonalarini tashkil etish to‘g‘risidagi taklifiga rozilik berilishi kerakligi nazarda tutilgan.

Belgilansinki, kichik sanoat zonalarini to‘g‘risidagi qonun hujjatlari qoidalari kichik turizm zonalariga ham tatbiq etiladi.

O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari bilan birgalikda 2018 yilning 1 iyuliga qadar tadbirkorlik subyektlariga yer uchastkalarini ajratishning soddalashtirilgan mexanizmini joriy etgan holda hududlarda kichik turizm zonalarini yaratish bo‘yicha takliflarni O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritishi kerakligi e‘tirof qilingan.

15. O‘zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi bilan birgalikda quyidagi summalar uchun soliq solinadigan bazani kamaytirish tartibini bir oy muddatda tasdiqlash kerakligi ham aytib o‘tilgan:

- 100 million so‘mgacha – xo‘jalik yurituvchi subyektlarning 2020-yilning 1-yanvariga qadar sanitariya qoidalari, me‘yorlari va gigiyena normativlariga muvofiq keladigan zamonaviy sanitariya-gigiyena tarmoqlarini qayta tiklash, kapital ta‘mirlash va qurishga yo‘naltirilgan xarajatlari;

- 12 million so‘mgacha – har yili 2025-yilning 1-yanvariga qadar xo‘jalik yurituvchi subyektlarning sanitariya qoidalari, me‘yorlari va gigiyena normativlariga muvofiq keladigan sanitariya-gigiyena tarmoqlarini (farroshlar ish haqi, gigiyena, tozalash va yuvish vositalarini sotib olish, kommunal xarajatlarni to‘lash), turizm infratuzilmasi obyektlarini (tarixiy va me‘moriy yodgorliklar,

muzeylar, teatrlar, madaniyat uylari, umumiy ovqatlanish punktlari, xizmat ko'rsatish obyektlari, avtomobillarga yoqilg'i quyish shoxobchalari, avtomobillar uchun vaqtincha to'xtash joylari, yo'lbo'yi infratuzilmasining servis xizmatlar ko'rsatiladigan hududlari, bozorlar, rastalar, do'konlar va odamlar gavjum bo'ladigan boshqa joylarni) saqlashga yo'naltirilgan xarajatlari.

- Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining xulosasi asosida zamonaviy sanitariya-gigiyena tarmoqlarini yaratish loyihalarini amalga oshiradigan tadbirkorlik subyektlari va potensial investorlarga shaharlar va tumanlarning tegishli qismlarida reklama va ixcham savdo nuqtalari uchun joylar taqdim etilishi ta'minlanadi.

16. O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi:

- manfaatdor vazirlik va idoralar tomonidan Amaliy chora-tadbirlar rejasi bajarilishi ustidan doimiy monitoringni;

- monitoring natijalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 16-avgustdagi 2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3217-son qarori bilan tashkil etilgan Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengashga rejalashtirilgan chora-tadbirlarning belgilangan muddatlarda so'zsiz bajarilishini ta'minlash maqsadida tegishli qarorlarni qabul qilish uchun har chorakda takliflar kiritilishiyo'lga qo'yildi.

17. Turizmni rivojlantirish bo'yicha muvofiqlashtiruvchi kengash (A.Aripov):

- ushbu qarorda nazarda tutilgan tadbirlarning so'zsiz, o'z vaqtida va sifatli bajarilishi ustidan doimiy va tizimli nazorat tashkil etilishini;

- vazirliklar, idoralar va boshqa tashkilotlar – mas'ul ijrochilar rahbarlarining Amaliy chora-tadbirlar rejasini so'zsiz amalga oshirish borasida ular tomonidan ko'rilayotgan amaliy choralar haqidagi hisobotlari har chorakda eshitib borilishini ta'minlash kerakligini ta'kidlab o'tdi.

18. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-sentabrdagi "Toshkent shahrida "Eski shahar" turizm zonasini barpo etish bo'yicha chora-

tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3260-son qaroriga 3-ilovaga muvofiq o'zgartirishlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi mahalliy hokimliklar va turistik tashkilotlar bilan hamkorlikda mamlakat aholisi uchun turlar tashkil qilishga faol kirishgan.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi matbuot xizmatchisining xabar berishicha, fevral oyi oxirlarida 43 kishidan iborat Qo'shko'pir kasaba uyushmasi a'zolari hamda Xozarasp tumani hokimligining 26 vakili uchun Qoraqalpog'iston Respublikasiga sayohat tashkil etildi. Mehmonlar o'z turlarini Sulton Uvays bobo kompleksiga tashrif buyurishdan boshlashdi. Shuningdek ular Nukusdagi Savitskiy muzeyi va Mazdakxon majmuiga borishdi. Mehmonlarning respublikaga tashrifiga bayramona ruh bag'ishlash maqsadida madaniy tadbirlar ham tashkillashtirildi.

Bundan tashqari, kam ta'minlangan oilalar farzandlari uchun Xivaga sayohat tashkil qilindi. Xivaga tashrif davomida bolalar shaharning diqqatga sazovor maskanlari bilan yaqindan tanishishdi. Kalta Minor, Ichan-qal'a, Juma masjidi, Olloqulixon, Muhammad Rahimxon, Sherg'ozixon madrasalari, Pahlavon Mahmud memoriali, "Tosh hovli" saroyi shular jumlasidandir.

Mazkur sayohatdan asosiy maqsad ulg'ayib kelayotgan avlodni mamlakat tarixi, milliy qadriyatlar hamda Xorazm viloyatidagi turizm sanoati bilan tanishtirish bo'lgan. Qo'mita ma'lumotlariga ko'ra, fevral oyi oxirida Xorazm viloyatiga shuningdek Olmaliq tog'-kon metallurgiya zavodining 80 nafar ishchisidan iborat guruh tashrif buyurgan. Ular ham viloyatning tarixiy maskanlarini sayohat qilishgan hamda Prezident tashabbusi bilan restavratsiya qilingan "Nurullaboy" kompleksi bilan tanishishgan.

Sayyohlar viloyatga tashriflari davomida Xorazm folklor ansambli chiqishlaridan ham baxramand bo'lishdi hamda milliy taomlardan tatib ko'rishdi.

Bahorning ilk kunlarida Buxoro viloyati maktabgacha ta'lim muassasalarining 150 nafar mutaxassisi uchun Samarqand viloyatining tarixiy maskanlariga sayohat tashkillashtirildi.

Buxoro viloyatining turistik kompaniyasi tomonidan tashkil qilingan sayohat davomida sayyohlar Imom al-Buxoriy majmuasi, Registon maydoni, Islom Karimov nomli memorial kompleks va viloyatning boshqa diqqatga sazovor maskanlariga tashrif buyurishdi va ularning qurilish tarixiga doir ma'lumotlarni ham olishga muvaffaq bo'lishdi.

"O'zbekiston bo'ylab sayohat qil!" shiori ostida Buxoroga sayohat ko'lami kundan-kunga kengayib bormoqda. Buxoro viloyat hokimligi va Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan ishlab chiqilgan dastur asosida 207 kishidan iborat guruhning Buxoroning tarixiy qismi "Yetti pir"ga tashrifi amalga oshirildi.

Sayohat Xo'ja Abduxoliq G'ijduvoniylar majmuasidan boshlanib, Xoja Bahouddin Naqshband maqbarasiga tashrif bilan yakunlandi. Shu bilan birga Romiton tumani restoranida tushlik, keyin esa Buxoro shahrining ajoyib restoranida kechki ovqat tashkillashtirildi. Bundan tashqari, musiqiy va madaniy tadbirlar bilan mehmonlar kayfiyati yanada ko'tarildi.

2.2. O'zbekistonda turizm sohasidagi islohotlar tahlili

2018 yil O'zbekistonda turizm sohasida juda ko'p yangiliklar kuzatildi: turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan yangi farmon va qarorlar, xalqaro va mahalliy tadbirlar, yangi ta'lim muassasalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, sayyohlar oqimining oshishi, yangi turistik mahsulotlar, yangicha yo'nalishlarni rivojlantirish, infratuzilmani takomillashtirishga oid sa'y-harakatlar, xorijiy investorlarni jalb qilish, OAV vakillarining tashrifi hamda O'zbekistonning ko'plab xalqaro reytinglarda yuqorilashi shular jumlasidandir. Quyida 2018 yil davomida turizmni rivojlantirish yo'lida amalga oshirilgan islohotlar va ishlar tahlili keltiriladi.


Hujjatlar

2018 yilda O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan mamlakatda turizmni rivojlantirishga yo'naltirilgan 11 hujjat, Vazirlar Mahkamasi tomonidan esa 25 normativ-huquqiy hujjat imzolandi.

Sayyohlik oqimi ko'rsatkichlari

Ko'pchilik orasida bahs-munozaralarga sabab bo'lgan sayyohlik oqimi ko'rsatkichlari haqida so'z yuritar ekanmiz, eng avvalo O'zbekiston sayyohlarni hisoblashda turizm sohasidagi yetakchi tashkilot hisoblangan UNWTO metodologiyasini qo'llashini ta'kidlash joiz. Jahonning 167 davlati mazkur hisoblash usulidan foydalanadi. Unga ko'ra, biror mamlakatga ishga joylashishdan boshqa har qanday maqsadda tashrif buyurgan hamda u yerda bir sutka va undan ortiq vaqt o'tkazuvchi shaxs sayyoh yoki mehmon hisoblanadi.

Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasining yakuniy [hisobotiga ko'ra](#), 2018 yilda O'zbekistonga 5,3 mln nafar sayyoh tashrif buyurgan. 2017 yilda ularning soni 2,69 mln nafarni qayd etgan, ya'ni sayyohlar soni bir yilda 97 foizlik o'sishni ko'rsatib, ikki baravarga oshgan. 2016 yilda esa ularning soni 2,07 million nafarni qayd etgan.




2018 yilda O'zbekistonga tashrif buyurgan 5 346 219 nafar sayyohdan 5 020 392 nafari MDH mamlakatlaridan kelgan, uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurganlar soni esa 325 827 nafarni tashkil qildi. O'zbekistonga kelgan sayyohlar orasida eng katta ko'rsatkich qo'shni Qozog'iston fuqarolari tomonidan qayd etilgan: 2 293 077 nafar. Undan keyingi o'rinda 1 095 505 fuqarosi bilan Tojikiston va 1 055 688 fuqarosi bilan Qirg'iziston kelgan. Uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurganlar orasida esa Turkiya fuqarolari yetakchilik


qilmoqda: 41 299 nafar. Keyingi o‘rinlarda 32 444 kishi bilan Xitoy va 27 269 sayyoh bilan Janubiy Koreya qayd etilgan.

Viza va ro‘yxatga olish jarayonlarining soddalashuvi. O‘tgan yil davomida 9 mamlakat uchun vizasiz rejim e‘lon qilindi. Fuqarolari uchun soddalashtirilgan viza rejimi qo‘llanuvchi mamlakatlar soni esa 12 tadan 50 taga oshdi. 2018 yilning 15 iyulidan va‘da qilinganidek elektron kirish vizalarini rasmiylashtirish va berish tizimi ishlay boshladi. Xorijiy fuqarolarni vaqtinchalik ro‘yxatga qo‘yish to‘liq elektron formatdagi E-MEHMON tizimiga o‘tkazildi. O‘zbekistondan tranzit orqali o‘tuvchi 101 davlat fuqarolari uchun mamlakatda vaqtinchalik vizasiz bo‘lish tartibi kiritildi.

Sayyohlik infratuzilmasi. O‘zbekistonda sayyohlik infratuzilmasini rivojlantirish maqsadida joylashuv vositalari bilan bog‘liq yengilliklar yaratildi. Masalan, xostellarga bo‘lgan talablar soddalashtirildi, jumladan ularga nisbatan qo‘yilgan 22 talab bekor qilindi. Bundan tashqari, oilaviy mehmon uylarini tashkil qilish tartibi soddalashtirildi. Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tomonidan taqdim etilgan ma‘lumotlarga ko‘ra, 2017 yilda O‘zbekistondagi xostellar soni 23 tani tashkil qilgan bo‘lsa, 2018 yilga kelib bu ko‘rsatkich 34 taga yetdi.



Oilaviy mehmon uylari soni esa 2017 yilda - 0, 2018 yilda esa 81 tani tashkil qilgan. Mehmonxonalar soni 772 tadan (2017 y.) 914 taga (2018 y.) yetgan.



Lisenziashtirish jarayoni davlat xizmatlari markazlari hamda Turizmni rivojlantirish davlat qoʻmitasining hududiy boʻlinmalari va departamentlariga topshirildi. Hujjatlarni koʻrib chiqish muddati 15 kundan 10 kunga qisqartirildi. Shuningdek taqdim etiluvchi hujjatlar soni ham kamaytirildi. Turoperatorlar soni 127 tadan (2017 y.) 234 taga (2018 y.) yetdi. 2018 yilda Oʻzbekistonda sertifikatga ega boʻlgan gidlar soni 660 nafarga yetdi. 2017 yilda ularning soni 369 nafarni tashkil etgan.

Transport infratuzilmasi

Oʻtgan yil davomida mamlakatda transport infratuzilmasini rivojlantirish yoʻlida qator ishlar amalga oshirildi. Jumladan, turistik avtobuslar xavfsizlik talablariga javob bergan taqdirda kuzatuv majburiyatidan ozod qilindi. Tungi vaqtda turistik avtobus harakatlanishiga nisbatan belgilangan taqiqlov bekor qilindi. Shu bilan birga, mahalliy sayyohlik guruhlarini tashishdan oldin ichki ishlar organlarining hududiy boʻlinmalari tomonidan amalga oshirilgan transport vositasini texnik tekshiruvdan oʻtkazish majburiyati bekor qilindi. Oʻzbekistonga 8 va undan ortiq kishini tashishga moʻljallangan turistik toifa avtotransport vositalarini sertifikatlash jarayoni soddalashtirildi.

2018 yilda turistik toifadagi avtotransportlar soni 133 taga yetdi. Bulardan 48 tasi - avtobus, 85 tasi - mikroavtobus.

Sanitariya-gigiyena shoxobchalari

Sanitariya-gigiyena shoxobchalari (SGSh) qurilishini rag'batlantirish maqsadida tatbiq etilgan imtiyozlar natijasida o'tgan yili jami 462 SGSh faoliyati yo'lga qo'yildi. Ularning 50 ga yaqini SGSh faoliyatini tashkil qilganlar uchun imtiyozlar berilishi haqidagi xabarni keng targ'ib qilish natijasida barpo etildi.

2018 yilda SGSh umumiy soni 4 747 tani tashkil qildi, 2017 yilda bu ko'rsatkich 4 285 tani qayd etgan.

Wi-Fi zonalar va yo'l ko'rsatkichlari

Prezidentning 2018 yil 3 fevraldagi «O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 5326-sonli farmonida internet tarmog'iga simsiz bepul ulanish hududlarini tashkil qiluvchi xo'jalik yurituvchi sub'yektlarga imtiyoz berildi. Unga ko'ra, xo'jalik yurituvchi sub'yektlar o'z hududida bepul Wi-Fi zonasini yaratgan taqdirda, bu hududni kengaytirish (bir nechta Wi-Fi nuqtalarini yaratish, ularning signal maydoning kengaytirish) uchun xarid qilingan asbob-uskunalar (internet tarmog'iga ulanish va tarqatish uchun zaruriy uskunalar, xususan router-modemlar, aloqa kabellari) va internet-trafikni sotib olish uchun yo'naltirilgan xarajatlar xo'jalik yurituvchi sub'yektlarning soliq solinadigan bazasi, shu jumladan, yagona soliq to'lovi bo'yicha bazasidan ayirib tashlanadi, undan qolgan mablag' belgilangan tartibda soliqqa tortiladi.

Yaratilgan imtiyozlarga muvofiq O'zbekistondagi bepul Wi-Fi zonalar soni bir yil ichida 38 tadan (2017 y.) 230 taga (2018 y.) oshdi.

Yo'l ko'rsatkichlari bilan bog'liq kamchiliklarni bartaraf etish maqsadida 2018 yilda ularning respublika bo'ylab ko'rsatkichi 416 taga yetkazilgan. 2017 yilda ularning soni atigi 43 ta bo'lgan.

"Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti

O'zbekiston Prezidentining 2018 yil 28 iyunidagi 3815-sonli qaroriga muvofiq Samarqand shahrida "Ipak yo'li" xalqaro turizm universiteti faoliyati

tashkil qilindi. 25 iyulda kirish testlari o‘tkazilib, qabul kvotalari asosida 137 nafar talaba tanlab olindi. Oliy ta’lim muassasasi (OTM) UNWTO logotipidan foydalanish huquqiga ega bo‘ldi. Xalqaro turizm universiteti Fransiya, Ispaniya, Turkiya, Indoneziya, Xitoy, Koreya Respublikasi, Rossiya, Belarus kabi 16 xorijiy davlat OTM bilan rasmiy hamkorlik aloqalarini yo‘lga qo‘ydi. Bosh vazir o‘rinbosari, "Ta'lim, sog‘liqni saqlash, jismoniy tarbiya, sport va turizm masalalari kompleksi" rahbari Aziz Abduhakimov "Ipak yo‘li" universitetining ilk rektori etib tayinlandi.

Turizmning eng muhim tadbirlari

2018 yilda O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishga yo‘naltirilgan ikki yirik tadbir bo‘lib o‘tdi. Bular:

1. “Ipak yo‘lida turizm” Toshkent xalqaro turizm yarmarkasi (3-5 oktabr).

Yarmarka “O‘zekspomarkaz”da ikki ko‘rgazma paviloni va uning atrofidagi hududda o‘tkazildi. Ko‘rgazma maydoni 10 ming kvadrat metrni tashkil qildi. Jami pavilonlardagi ko‘rgazma stendlarida 940 kompaniya ishtirok etdi, ulardan 140 tasi xorijiy va 800 tasi – mahalliy. Uch kun mobaynida yarmarkaga 56 mingdan ziyod kishi tashrif buyurdi. Faol ishtirokchilar maxsus mukofotlar bilan taqdirlandi.

2. Turizm sohasidagi I xalqaro investitsiya forumi (19-21 noyabr).

Forumda 48 davlatdan 300 dan ortiq ishtirokchi qatnashdi. Ular investorlar, turizm sohasida faoliyat olib boruvchi tashkilotlar va moliyaviy institut vakillari hamda yirik mahalliy va chet el kompaniya boshqaruvchilaridan iborat bo‘ldi. Shuningdek tadbirda 15 davlatdan 30 dan ortiq xorijiy va mahalliy OAV vakillari ishtirok etdi. Forum davomida 400 dan ortiq investitsion loyiha taqdim qilindi va mahalliy investorlar bilan 37 ta shartnoma hamda memorandumlar, xorijiy AQSh dollarida 86 ta investitsiya kelishuvi imzolandi.

2.3.Mintaqada ichki turizmni rivojlantirishda xalqaro tajribalardan foydalanish

Turistik safarlar sonining ortishi, ular jug‘rofiyasining kengayishi, transport vositalarining rivojlanishi munosabati bilan xalqaro tashkilotlar davlatlar va hukumatlarning diqqat-e’tiborini turizmni rivojlantirish muammolari hamda milliy

turizm tashkilotlarining yangi mavqeiga qaratmoqdalar. 1921 boshlab Millatlar ligasi, BMTning 1975 yildan boshlab esa Jahon turizm tashkilotining rahbarligi ostida turizm muammolariga bag'ishlangan 30 dan ortiq xalqaro anjumanlar, kongresslar va tadbirlar o'tkazildi. 1995 yil mart oyida Kadis shahrida (Ispaniya) JTT rahbarligi ostida turizm bo'yicha xalqaro forum o'tkazildi va unda jahonning 52 mamlakatidan kelgan parlamentchilar ishtirok etdilar. Ushbu forum shunday xulosaga keldiki, davlatlar turizm rivoji uchun katta ahamiyatga molik quyidagi muammolarni yechishda yordam berishlari zarur:

- turistik rasmiyatchilikni tartibga solish va turistlar xavfsizligini oshirish;
- turizm infratuzilmasi, shu jumladan transport va kommunikatsiyalarni rivojlantirish;
- turistik tashkilotlar rahbarlari va xizmatchilarini o'qitish uchun sharoitlar yaratish;
- turistik ob'ektlar va safar manzillarida ekologik normalarga rioya qilishni ta'minlash;
- turistlar huquqlarini himoya qilish;
- turistik firmalar uchun imtiyozli soliq tizimini ta'minlash;
- turizm qabul kilingan xalqaro mezonlar va normalar asosida ob'ektiv statistika hisoboti va nazoratini amalga oshirish imkoniyatini beradigan iqtisodiy va statistik mexanizmlardan foydalanish;
- turizm uchun foydali bo'lgan mamlakat timsolini shakllantirish yo'li bilan milliy turmahsulotlarni chet-el bozorlariga olib kirish.

Quyidagilar bir qator xorijiy mamlakatlarda turizm rivojini qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy va ma'muriy mexanizmlari bo'lib xizmat qiladi:

- soliq imtiyozlari, subsidiya va dotatsiyalar;
- turizm rivojini va turistik xizmatlar iste'molchilarining huquqlarini himoya qilishni qo'llab-quvvatlovchi milliy qonunchilik va normativ hujjatlari;
- mamlakatga kirish va undan chiqish paytida pasport va viza cheklashlarini kamaytirish;

- narxlarni qisqartirish va boshqa turli xil imtiyozlar berish yoʻli bilan nomavsumiy turizmni ragʻbatlantirish;
- ijtimoiy turizmni rivojlantirish va qoʻllab-quvvatlash;
- turistlar xavfsizligiga qoʻyiladigan talablarni kuchaytirish;
- davlat tomonidan atrof-muhitni muhofaza qilish, madaniy va tarixiy merosni asrab-avaylash boʻyicha va boshqa chora-tadbirlarni kuchaytirish.

Bir qator mamlakatlar, shu jumladan Ispaniya va Gretsiya soliqlar amortizatsiya ajratmalari va oborot uchun soliqlar toʻlash boʻyicha sarmoyadorlarga imtiyozlar beradilar. Baʼzi mamlakatlarda korxonalar faoliyatining dastlabki yillarida ularni daromad soligʻidan ozod etish, shuningdek, qoʻshimcha qiymat soligʻini toʻlashda imtiyozlar berish amaliyoti qoʻllaniladi. Bundan tashqari mehmonxonalar uchun asbob-uskunalar va sayohat uchun transport vositalarini import qilish paytida bojxona toʻlovlari boʻyicha imtiyozlar (umuman ozod qilishgacha) beriladi .

Yevropa Ittifoqi mamlakatlari turizm va mehmonxona faoliyati uchun 6-25% atrofida boʻlgan qoʻshimcha qiymat soligʻini (QQS) tenglashtirishga yoʻnaltirilgan siyosatni olib borishadi. Misol uchun, Germaniya va Lyuksemburgda oʻrtacha QQS miqdori 15% qilib belgilangan. Daniya va Shvetsiyada maksimal QQS miqdori 25%ga teng. Ispaniyada joylashtirish uchun QQS oʻrtacha 7%ni tashkil qiladi va mehmonxona darajasiga qarab oʻzgarishi mumkin, ovqatlanish (restoran xizmatlari), avtomobillarni ijaraga olish uchun QQS esa 16%gacha yetadi. Gretsiyada joylashtirish va ovqatlanish uchun QQS8%ni tashkil qiladi va hukumat nomavsumiy paytlarda turistik xizmatlar koʻrsatuvchi firmalarga imtiyozlar tizimini ishlab chiqqan.

Fransiyada turizm faoliyati uchun QQS oʻrtacha 10%ni, shu jumladan joylashtirish uchun 6%ni, ovqatlanish xizmatlari uchun 19%ni tashkil qiladi. Avstriyada joylashtiri va ovqatlanish uchun QQS 10% miqdorida belgilangan. Lekin turistik soliqlar toʻgʻrisidagi federal qonunga asosan barcha turistik tashkilotlari har bir turistning yashashi uchun mahalliy toʻlov toʻlaydilar (jamoahududida-jamoaga, kurortlarda-kurort jamgʻarmasiga). Toʻlov miqdori mavsumga

qarab o'zgarishi mumkin, bunda shifoxona bemorlari (6 yoshgacha bo'lgan bolalar, maktab o'quvchilari va talabalar) bu to'lovlardan ozod etilgan. Yevropaning ba'zi mamlakatlarida turistik tashkilotlar kommunal xizmatlar uchun imtiyozli tariflardan foydalanadilar. Ko'pchilik hollarda turistik firmalar valyuta daromadining 20%gacha bo'lgan qismi daromad solig'idan ozod qilingan. Davlat tomonidan shuningdek yangi turistik ob'ektlarning qurilishi uchun yerlarni past narhlarda sotish va ma'lum muddatga ijaraga berish (Kiprda 99 yilga, Isroil va Turkiyada 49 yilgacha) yo'li bilan rag'batlantiriladi, bunda ijara muddati tugagach yana shuncha yilga cho'zilishi mumkin.

Atrof-muhitning tez sur'atlar bilan ifloslanib ketayotganligi munosabati bilan turizm sohasidagi davlat siyosati ko'proq atrof-muhit muhofaza qilishga yo'naltirilmoqda. Bir qator mamlakatlarda turizm atrof-muhitni himoya qilishni ham rejalashtirishni nazorat qiluvchi maxsus hay'atlar faoliyat yuritadilar (Buyuk Britaniya, Fransiya, Skandinaviya davlatlari).

1992 yilda Rio-de Janeyro shahrida Jahon turizm tashkiloti XXI asr uchun ish dasturini qabul qilgan bo'lib, unga 182 davlat birikkan. Ushbu dasturning amalga oshirishda asosiy vakolat turizm bo'yicha davlat muassasalariga berilgan. Reja uzoq muddatli dasturlarni yaratish uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan uch asosiy qurolga urg'u beradi:

- odamlar va atrof-muhitni himoya qilishni nazarda tutuvchi yangi tavarlar ishlab chiqish yoki amaldagi choralarni kuchaytirish;

- narhdan, tayziq o'tkazish mexanizmi sifatida foydalanish;

- turizm industriyasida ishlab chiqarish jarayonlari va mahsulot tozaligini kafolatlash uchun mo'ljallangan dasturlarni yaratish.

Davlat idoralari turizm uzoq muddatli dasturlarni yaratishda yetakchi o'ringa ega. Bir qator mamlakatlar bunday dasturlarga ega (Rossiya, Finlyandiya, Avstriya, Fillipin va boshqalar). XXI asr uchun ish dasturi turizm bo'yicha davlat idoralari oldiga quyidagi asosiy masalalarni qo'yadi:

- nazorat qiluvchi iqtisodiy va boshqa tizimlarni kamaytirish;

-turizmning iqtisodiyotga, jamiyatning ijtimoiy va madaniy xayotiga va atrof-muhitga ta'sirini baholash;

-turizm sohasida xizmatchi kadrlar tayyorlash;

-turizmning uzoq muddatli barqaror taraqqiyotini rejalashtirish,

-rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlar o'rtasida ma'lumot almashish;

-jamiyat barcha qismlarining turizmni rivojlantirishda qatnashuvi;

-yangi turmahsulot tushunchasi;

-amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijalarini baholash;

-xalqaro faoliyatda hamkorlik o'rnatish.

Dasturning birinchi vazifasi quyidagilarni o'z ichiga oladi :

-dastur maqsadlarini amalga oshirish bilan shug'ullanuvchi, turizmning rivojiga yo'naltirilgan mavjud milliy, xalqaro va boshqa tizimlarning faoliyatini baholash;

-turizmning xususiy va davlat tarmoqlari o'rtasida hamkorlik;

-turizm tarmog'iga soliq va to'lovlar solish shu tariqa belgilanishi kerakki, turizm infratuzilmasini kengaytirish, atrof-muhitni yaxshilash va boshqa maqsadlar uchun yetarli mablag'lar bo'lsin;

-tovar va xizmatlar uchun turizm bilan bog'liq ekologik xarajatlarni xisobga oluvchi narhlarni kafolatlovchi iqtisodiy chora-tadbirlar qabul qilish. Iqtisodiy rag'batlantiruvchi choralar shuningdek turistik firmalarning atrof-muhitni muhofaza qilish borasidagi yutuqlarini rag'batlantirish uchun ham ishlatilishi kerak.

Ikkinchi vazifa o'z ichiga turizm taraqqiyoti jamiyatning ijtimoiy- iqtisodiy va madaniy hayoti uchun oqibatlarini baholashni oladi. Bu esa o'z navbatida suv resurslari, elektr quvvati, transport vositalaridan samarali foydalanish, turizm sohasida ish bilan ta'minlash, mahalliy aholi qatnashuvi siyosatining mavjudligi, atrof-muhit, madaniy, tabiiy va tarixiy qadriyatlarni muhofaza qilish kabi masalarni ko'rib chiqish zaruratini tug'diradi.

Turizmدا kadrlar tayyorlash va rejalashtirish dasturi muhim hisoblanadi. Maktablarning o'quv rejalariga turizm ekologiyasi bo'yicha o'quv kursini kiritish

tavsiya qilinmoqda. Kadrlarni nazariy va amaliy jihatdan tayyorlash maqsadida davlat turistik tashkilotlar va professional turistik birlashmalar xususiy sektor bilan hamkorlik qilishlari maqsadga muvofiqdir.

Turizmni rivojlantirishni rejalashtirish sohasida yetakchi mas'uliyat davlatga yuklanadi. Davlat idoralari turizmning tartibsiz rivojlanishini oldini olish maqsadida bu jarayonni nazorat qiladi. Sust rejalashtirilgan va boshqarib bo'lmaydigan turizm tuzatib bo'lmas zarar yetkazishi mumkin Masalan, Bermuda orollarida turizm industriyasini himoya qilishga yo'naltirilgan bir qator qonuniy hujjatlar qabul qilingan. Ayniqsa, portlarga kiruvchi kemalar soni cheklangan, neon bezaklar man etilgan, dengiz o'simlik va hayvonot dunyosini himoya qilish nazarda tutilgan, binolar balandligi chegaralangan, tabiiy qo'riqxonalar uchun yer ajratish ko'zda tutilgan.

Davlat idoralari vazifalariga yangi qurilishlarni nazorat qilish ham kiradi chunki turistik ob'ektlarni suv bilan ta'minlash, oqava suvlarni, axlat va qoldiqlarni chiqarish, zarur joylarda suvning qo'shimcha zahiralarini yaratish uchun zamonaviy asbob-uskunalarga ega bo'lishi kerak. Qurilishda yangi ish joylarini tashkil qilish maqsadida kup sonli mahalliy ishchi kuchini talab qiluvchi texnologiyalardan foydalanish, shuningdek qurilayotgan turistik ob'ektlarbo'ronlar, suv toshqini, zilzilalar kabi ehtimolli tabiiy ofatlarni hisobga olgan holda loyihalashtirilganligi davlat tomonidan nazorat qilinishi lozim. Davlat tomonidan nazorat qilinuvchi chora-tadbirlar tizimigina turizmning uzoq muddatli to'g'ri va samarali rivojlanishini ta'minlashi mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi O'zbekiston Respublikasida turizm sohasida davlat nazoratini amalga oshiruvchi, ijro etuvchi hokimiyat organi bo'lib xizmat qiladi. Turistik faoliyatining davlat nazorati shundan iboratki, O'zbekiston Respublikasida turizm iqtisodiyotning ustivor tarmoqlaridan biri deb tan olingan. Mahalliy va tashqi turizm, shuningdek, ijtimoiy va madaniy turizmni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish davlat nazoratining ustivor yo'nalishlari sifatida e'lon qilingan.

Turistik faoliyatning davlat tomonidan nazorati quyidagicha amalga oshiriladi:

- turizm sohasidagi munosabatlarni tartibga solish va takomillashtirishga qaratilgan me'yoriy va huquqiy hujjatlarni yaratish;

- turistik mahsulotni ichki va jahon turizm bozorlariga olib chiqishda yordam berish;

- turistik faoliyatni standartlashtirish va litsenziyalashtirishni amalga oshirish, turistik mahsulotini sertifikatsiyadan o'tkazish;

- O'zbekiston hududida mamlakatga kirish, chiqish va istiqomat qilish qoidalarini o'rnatish;

- turizmni rivojlantirish bo'yicha davlat dasturlarini yaratish va amalga oshirish uchun to'g'ri byudjet mablag'larini ajratish;

- turistlarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ularning xavfsizligini ta'minlash;

turizm faoliyatini kadrlar bilan ta'minlashni qo'llab-quvvatlash va turizm sohasida ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va boshqalardan iborat.

III-BOB. XORAZM VILOYATI IQTISODIYOTINI RIVOJLANTIRISHDA ICHKI TURIZMNING IMKONIYATLARI

3.1. Xorazm viloyatida ichki turizm rivojlanishining hozirgi holati

Bugungi kunda Xorazm viloyatida turizm sohasi jadal va barqaror rivojlanayotgan tarmoqqa aylandi va uning faoliyat yo'nalishlari keng taraqqiy qilib bormoqda. Turizm tufayli xizmat ko'rsatish sohasi ham alohida rivojlanib, mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushi ortib bormoqda va xizmat ko'rsatishning servis va sifat kabi jihatlariga alohida e'tibor qaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasida turizm sohasining jadal va barqaror rivojlanib borishi Xorazm viloyatida turizm sohasining alohida tarmoq sifatida keng taraqqiy qilib borishiga muhim zamin yaratdi va bugungi kunga kelib, eng muhim ustuvor sohalardan biriga aylandi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari xizmat qiladi.

Chunki, Xorazm viloyati hududi Buyuk ipak yo'lining markazida joylashgan bo'lib, O'zbekistonning eng yuqori sayyohlik salohiyatiga ega mintaqalaridan biri hisoblanadi. Jahon hamjamiyati tomonidan Xiva shahrining ochiq muzey-shahar sifatida e'tirof etilishi hamda YUNESKO butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilishi, nafaqat Xorazm viloyati, balki O'zbekistonning jahon turizm bozoriga dadil kirib borishi uchun mustahkam zamin yaratdi.

Darhaqiqat, Xorazm viloyatida turizm sohasi global tarmoq sifatida istiqbolli eng yaxshi rivojlanayotgan soha hisoblanadi. Uning ixtisoslashgan turlari mamlakat va mintaqa miqyosda shaxslararo, madaniy, ijtimoiy va siyosiy munosabatlar rivojlanishiga ijobiy ta'sir qiladi. Hamda bu soha bajarilgan turizm xizmatlari hajmi, kelgan turistlar soni, mehmonxonalar va undagi o'rinlar sonining oshishi kabi ko'rsatkichlarni o'z ichiga oladigan turizm sohasining rivojlanish imkoniyatlarini aks ettiruvchi tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Viloyatda 255 ta madaniy meros ob'ektlari, shu jumladan 18 ta arxeologiya yodgorliklari, 133 ta me'morchilik yodgorliklari, 66 haykaltaroshlik yodgorliklari, 6 tasi diqqatga sazovor joylar va 32 muqaddas joylar mavjud.

Bugungi kunda dunyoning 70 dan ortiq davlatidan yiliga 55 mingga yaqin faqatgina xorijiy turistlar viloyatga tashrif buyuradi;

Turizm xizmatlarining yillik eksport hajmi 10 mln. AQSh dollarini tashkil etadi;

Turizm sohasida 40 tadan ortiq korxonalar, shundan 27 ta mehmonxona va 9 ta turfirmalar hamda boshqa ko'plab servis xizmati sub'ektlari faoliyat yuritmoqda. Viloyatda turizm sohasida 15 ming nafardan ortiq fuqarolar band bo'lib, ularni bir necha barobarga oshirish imkoniyatlari mavjud.

Xorijiy turistlarning viloyatda bo'lishi qariyb 1,5 sutkani tashkil etadi, o'rtacha bir kunlik xarajatlari esa 130 AQSh dollaridan ortiq.

Mavjud mehmonxonalarining yillik o'rtacha band bo'lish ko'rsatkichi 40-45 foizni tashkil etgan bir paytda, turizm mavsumida xizmat ko'rsatuvchi mehmonxonalarda joy etishmasligi kuzatiladi.

Turizm infrastrukturasini, ya'ni avtotransport vositalari, mehmonxonalar, restoran va boshqa xizmat turlariga bo'lgan talab yuqori bo'lib, ushbu sohalarga investitsiyalar yo'naltirilishi katta iqtisodiy samara keltiradi.

Viloyatning foydalanilmayotgan turizm imkoniyatlari

Viloyatning Urganch shahri, Xiva, Yangiariq, Bog'ot, Xazorasp va Shovot tumanlarida joylashgan 15 ta madaniy meros ob'ektlari va 10 ta bo'sh turgan maktab va bolalar bog'chalari binolarini yangi turizm yo'nalishlarga kiritilishi taklif etiladi.

Mazkur madaniy meros ob'ektlari hamda bo'sh turgan binolarda turli xildagi, ya'ni arxeologik, milliy kiyimlar, milliy cholg'u asboblari, non, guruch, qovuntarvuz kabi muzeylar, suratlar galareyasi tashkil qilinishi hamda ushbu ob'ektlarga turistlar keng jalb etilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Turizm yo'nalishlariga yangidan kiritilishi taklif etilayotgan madaniy meros ob'ektlari hamda bo'sh turgan binolarning suratlari va ulardan samarali foydalanish bo'yicha amalga oshiriladigan tadbirlar quyida havola etiladi.

Ollaqulixonning yozgi qarorgohi

Qarorgoh Xivaning shimoliy-sharq qismida, ya'ni Xivadan 6 km. Uzoqlikda joylashgan. Qarorgoh 1835-1842 yillarda Xiva tumanining Gandimyon qishlog'ida barpo etilgan. Xonlar orasida Ollaqulixon "Me'mor xon" deb tan olingan bo'lib, Xivadagi ko'pgina me'moriy obidalar uning xonlik davrida qurilgan. Shu jumladan, mazkur bog' ham uning topshirig'iga asosan barpo etilgan.

Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar:

-Bog' atrofidagi buzilgan devorlarni qayta tiklash, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish;

-Boqqa yetib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirib, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarini (do'kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) joriy etish;

-Bog' tarixi, shu jumladan "Me'mor xon" deb tan olingan Ollaqulixon tomonidan barpo etilgan me'moriy yodgorliklar to'g'risida hamda bog'dagi mevalarni etishtirish usulini ko'rsatib beruvchi ko'rgazma tashkil etish;

"Otajon to'ra" madrasasi

Madrasa Xivaning janub qismida, ya'ni Xivadan 3 km uzoqlikda joylashgan. Madrasa Xiva xoni Said Muhammad Rahimxon II Feruzning ukasi Otajon To'ra tomonidan 1893-1899 yillarda Gandimyon qishlog'ida barpo etilgan. Mazkur madrasada 1873 yil 12 avgustda Xiva xoni va chor Rossiyasi o'rtasida dunyo tarixidagi mashhur "Gandimyon tinchlik shartnomasi (sulhi)" imzolangan. Madrasada 121 ta hujra hamda yozgi va qishqi masjid mavjud, shuningdek Otajon To'raning maqbarasi joylashgan.

Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar:

-Rekonstruktsiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish;

-Madrasaga etib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirish, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarini (hunarmandlar rastasi, do'kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) tashkil etish ;

“Gandimyon sulhi”ga oid hujjatlar, suratlar va ashyoviy materiallarga asoslanib muzey tashkil etish hamda ushbu materiallar asosida hujjatli film yaratib, mazkur madrasada ko‘rsatishni tashkil etish.

“Bibi Hojar” maqbarasi

Maqbara Xivaning janubiy sharqiy qismida, ya’ni Xivadan 12 km. uzoqlikda joylashgan. Maqbara 1846 yilda Xiva tumanining Soyot qishlog‘ida qurilgan, majmuada maqbara, qishki masjid va qabriston joylashgan. Bibihojar ona buyuk mutafakkir, Valiytarosh – Najmiddin Kubroning onasi bo‘lib, uning vafotidan ancha keyin bu maqbarani Xiva xoni Muhammad Rahimxon davrida qurilganligi haqida qishki masjidning ustunida maxsus yozuv bor

Amalga oshirish lozim bo‘lgan tadbirlar:

-Maqbara atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish;

-Maqbaraga etib borgunga qadar bo‘lgan yo‘llarni tartibga keltirish, maishiy xizmat ko‘rsatish ob‘ektlarini (do‘kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) tashkil etish;

-Mahalliy va xorijiy sayohatchilar ziyoratlarni to‘la-to‘kis amalga oshirishlari uchun barcha qulay shart sharoitlarni yaratish.

“Ro‘zmat Madaminov” nomidagi muzey

Muzey Xivaning janubiy sharqiy qismida, ya’ni Xivadan 14 km. uzoqlikda joylashgan. Ro‘zmat Madaminov raislik qilgan jamoa xo‘jaligining Soyot qishlog‘ida 1976 yilda madaniyat saroyini qurdirgan. Keyinchalik mazkur madaniyat saroyida Xivani va qishloq hayotini aks ettiruvchi katta muzey tashkil etilgan.

Amalga oshirish lozim bo‘lgan tadbirlar:

-Muzeyni milliy ruhda rekonstruktsiya qilish, atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish;

-Muzeyga etib borgunga qadar bo‘lgan yo‘llarni tartibga keltirish, maishiy xizmat ko‘rsatish ob‘ektlarini (do‘kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) tashkil etish;

Muzeyning tomoshalar zalida milliy urf odatlar, qadriyatlar, an'analar, to'y marosimlari va milliy bayramlarimizning o'tkazilishini teatrlashtirilgan holda ko'rsatish hamda milliy kiyimlar galereyasi va ko'rgazmalarini tashkil etish.

“Chodra hovli” me'moriy yodgorligi

Me'moriy yodgorlik Xiva tumanning janubiy –sharqiy qismida “Soyot” qishlog'ida, Xivadan 15 km.uzoqlikda joylashgan. Me'moriy yodgorlik XV-XVII asrlarga oid bo'lib, u paxsa devordan tiklangan va arxitekturaviy kompozitsiyasi minorasimon tarzda 4 qavatdan iborat qilib qurilgan. Me'moriy yodgorlik Xiva xonining shahar tashqarisidagi dala hovlisi bo'lib, uning atrofi devor bilan o'ralgan, ichki qismida turli xil mevali daraxtlar ekilgan katta bog' mavjud.

Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar:

-Yodgorlik atrofidagi buzilgan devorlarni qayta tiklash, yodgorlikka olib boradigan yo'llarni va bog'ni obodonlashtirish va sanitariya holatini yaxshilash, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlarini (do'kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) joriy etish;

-Bog'da yangi mevali daraxtlarni va turli xildagi gullarni o'stirish va ko'kalamzorlashtirish;

-Xon va uning oila a'zolarining yozda bog'da dam olish jarayonlarini suratlar va haykallar yordamida ko'rsatib beruvchi muzey tashkil etish hamda bog'dagi mevalar va gullarning hamda milliy taomlarni tayorlash ko'rgazmasini tashkil etish;

“Shayx Muxtor Valiy” maqbarasi

“Ostanabuva qabristoni” deb ataluvchi ushbu mashhur va qadimiy maqbara – Yangiariq tumani Ostona qishlog'ida, Xivadan 25 km uzoqlikda joylashgan.

Maqbara 1287 yilda vafot etgan taniqli Xorazm Shayxi nomiga Usta Zayniddin ibn Odina Muhammad tomonidan qurilgan. Rivoyatlarda bu qadamjo Makka shahridagi Ka'batullohning “Ostonasi”, ya'ni mukarram joy ekanligi aytilgan.

Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar:

-Maqbara va uning atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirib, maqbaraga etib borgunga qadar bo‘lgan yo‘llarni tartibga keltirish;

-Maqbara atrofida maishiy xizmat ko‘rsatish ob‘ektlarini (do‘kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) tashkil etish;

-Mahalliy va xorijiy sayohatchilar ziyoratlarni to‘la-to‘kis amalga oshirishlari uchun barcha qulay shart sharoitlarni yaratish;

Qalajiq qal’asi

Qal’a, Bog‘ot tumanining janubiy g‘arbida, Xivadan 45 km. uzoqlikda Qoraqumning qum barxanlari chegarasida joylashgan; Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra qal’a Miloddan avval IV-asrga oid, maydoni 2 ga.; Qal’aning old qismida mashhur shifobaxsh ma’danli suvli ko‘l va qum mavjud, bugungi kunda respublika aholisi turli xildagi kasalliklarga shifo topish uchun iyul-avgust oylarida cho‘milishga kelishadi va atrofidagi qumda davolanish muolajalarini qabul qilishadi

Amalga oshirish lozim bo‘lgan tadbirlar:

-Qal’ani restavratsiya qilish, qal’aga olib boruvchi yo‘llar va uning atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirib, maishiy xizmat ko‘rsatish ob‘ektlari (hunarmandlar rastalari, do‘kon, oshxona, hojatxona va boshqalar)ni tashkil etish;

-Muzey tashkil etib, ushbu muzeyda qal’ada hayot mavjud bo‘lgan davrning arxitekturaviy maketini tayyorlash hamda arxeologik topilmalarni joylashtirish;

-Shifobaxsh suvdan va qumdan samarali foydalanish uchun sanitariya va gigiena talablariga javob beradigan davolash maskanini tashkil etish.

Xazorasp qal’asi

Qal’a, Xazorasp tumanining markazida, Xivadan 75 km. uzoqlikda joylashgan; Arxeologik tadqiqotlarga ko‘ra qal’a Miloddan avvalgi II-III asrlarga oid; Qal’da Zardushtiylik dini qoldiqlari juda ko‘p uchraydi; Yozma tarixiy manbalarga ko‘ra “Xazorasp qal’asi” Markaziy Osiyoning eng yirik va eng qadimiy shaharlaridan biri sanalgan.

Amalga oshirish lozim bo‘lgan tadbirlar:

-Restavratsiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish;
-Qal'aga etib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirib, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari (hunarmandlar rastalari, do'kon, oshxona, hojatxona va boshqalar)ni tashkil etish;

-Muzey tashkil etib, ushbu muzeyda qal'ada hayot mavjud bo'lgan davrning arxitekturaviy maketini tayyorlash hamda arxeologik topilmalarni joylashtirish.

-Ogahiy nomidagi teatr 2007 – 2008 yillarda Urganch shahrining markazida bosh maydonbarpo etilgan; Mazkur maydonda Al-Xorazmiyning 15 metrlik haykali o'rnatilgan;

-Maydonga tutashgan joyda muhtasham teatr qad roslagan.

-Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar

-Teatr tomoshalar dasturi va ko'rsatiladigan spektakllar mazmun-mohiyatini o'zbek, rus, ingliz tillarida chop etish; Sayyohlik tashkilotlari orqali ushbu tayyorlangan materiallarning reklamasini tashkil etish;

Jaloliddin Manguberdi majmuasi

Majmua, Urganch shahri markazida Xivadan 25 km. uzoqlikda joylashgan:

Majmua, 1999 yilda Jaloliddin Manguberdining 800 yilligiga bag'ishlab tashkil etilgan; Umumiy er maydoni 10 gektar bo'lib, yodgorlikning balandligi 20 metr.

Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar:

-Jaloliddin Manguberdi tarixiga doir doimiy ko'rgazma tashkil etish;

-Majmua yon atrofini obodonlashtirish va zamonaviy sanitariya talablariga javob beradigan hojatxona tashkil etish;

-Sovg'alar va yaxna ichimliklar bilan savdo qiluvchi shaxobchalar tashkil etish;

Fotogalereya

Fotogalereya, Urganch shahri markazida, Xivadan 25 km. uzoqlikda joylashgan; Bino 1912 yilda qurilgan va er maydoni 530 kv.m tashkil etadi;

Eksponatlar soni 650 donani tashkil etadi.

Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar:

-Binoni qayta ta'mirlash, yon atrofini obodonlashtirish va zamonaviy sanitariya talablariga javob beradigan hojatxona tashkil etish;

-Sovg'alar va yaxna ichimliklar bilan savdo qiluvchi shaxobchalar tashkil etish

Avesto maydoni

Avesto maydoni, Urganch shahri markazida, Xivadan 25 km. Uzoqlikda joylashgan, umumiy er maydoni 20 gektar; Yodgorlikning balandligi 18 metrni tashkil etadi; 2001 yilda "AVESTO" kitobining

2700 yilligi munosabati bilan tashkil etilgan.

Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar:

-Yaxna ichimliklar va hunarmanchilik buyumlarining savdo rastasini tashkil etish;

-Zamonaviy sanitariya talablariga javob beradigan hojatxona tashkil etish;

-Velosipedda yurish yo'lakchalarini tashkil etish.

Hoja Yusuf Hamadoniy yodgorligi

Yodgorlik Shovot tumani Beshmergan qishlog'ida, Xivadan 40 km. uzoqlikda joylashgan; Yodgorlikda uch buyuk avliyo Hoja Yusuf Hamadoniy, Hoja Abdulqodir Giloniy va Hoja Sayid Ali Hamadoniy ziyoratgohlari joylashgan; Mazkur joy azaldan ziyoratgoh bo'lib, har yili ommaviy xalq sayillari tashkil qilingan; Bu erga ihlos bilan kelgan xastalar dardiga shifo topgan. Hozirgi kunda yodgorlik oldida ruhiy kasallar davolanishi uchun chillaxonalar mavjud.

Amalga oshirish lozim bo'lgan tadbirlar:

-Rekonstruktsiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish, yodgorlikka etib borgunga qadar bo'lgan yo'llarni tartibga keltirib, maishiy xizmat ko'rsatish ob'ektlari (hunarmandlar rastasi, do'kon, oshxona, hojatxona va boshqalar)ni tashkil etish hamda chillaxonalarni qayta ta'mirlash lozim;

-Azalda bo'lgani kabi yodgorlikda xalq sayillarini, ya'ni ko'ngilochar tomoshalar –kurash, qo'chqor urishtirish, darboz o'yini, masxarabozlik, bahshi va xalfachilik, ashula va raqs san'atlarini namoyish etish lozim.

“Katqal’a” qal’asi

Qal’a, Shovot tumanining janubiy G’arbida, Xivadan 45 km. uzoqlikda joylashgan; Arxeologik tadqiqotlarga ko’ra qal’a miloddan avvalgi V-asrga oid, maydoni 8,5 ga. Qal’a qadimda mudofaa devori sifatida bunyod etilgan bo’lib, hozirda asosiy er ustki qismlari yo’qolib ketgan; Qal’a XVI-asrda Anusha xon tomonidan qayta qurilgan.

Amalga oshirish lozim bo’lgan tadbirlar:

-Restavratsiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish, qal’aga etib borgunga qadar bo’lgan yo’llarni tartibga keltirib, maishiy xizmat ko’rsatish ob’ektlarini (hunarmandlar rastasi, do’kon, oshxona, hojatxona va boshqalar) tashkil etish;

-Muzey tashkil etib, ushbu muzeyda qal’ada hayot mavjud bo’lgan davrning arxitekturaviy maketini tayyorlash hamda arxeologik topilmalarni joylashtirish, shuningdek mazkur muzeyda qishloq hayotini aks ettiruvchi sur’atlar va haykallarni joylashtirish lozim

“Nurullaboy” majmuasi

Bir necha yildan buyon qarovsiz, bo’sh turgan mazkur majmuani ta’mirlab va obodonlashtirib, uning bir qismida zamonaviy mehmonxona, ikkinchi qismida kamida 2 ta restoran, 1 ta “Fast food” hamda karaoke va tungi klub tashkil etish. Shuningdek, majmuada milliy kiyimlar modasi, galereyasi, milliy va zamonaviy musiqiy shou tashkil etish.

“Said Muhammadxon” madrasasi

Bir necha yildan buyon qarovsiz, bo’sh turgan mazkur madrasani ta’mirlab va obodonlashtirib milliy ruhdagi zamonaviy restoran va karaoke tashkil etish

“Polvon qori” majmuasi

Majmuani rekonstruktsiya qilish, obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirib, milliy ruhdagi zamonaviy restoran va karaoke tashkil etish

“Husain Muhammadboy” yodgorligi

Yodgorlikni rekonstruktsiya qilish, yon atrofini obodonlashtirish va sanitariya holatini tartibga keltirish va atrofida gulzor barpo etish;

Milliy ruhdagi zamonaviy choyxona ochish va shu erning oʻzida osh (palov) qanday tayyorlanishining turistlarga namoyish etilishini tashkil etish.

Yuqorida koʻrsatilgan binolarda quyida koʻrsatib oʻtiladigan chora-tadbirlar amalga oshiriladi:

-Qariyalarning choyxonada dam olishlari, qadriyatlar, urf-odatlar va milliy kiyimlar

-Qishloq aholisining hayot tarzi, urf-odatlari;

-toʻy marosimlari va anʼanalari namoyishi;

-Non tayyorlash.

Osh tayyorlash sanʼati namoyishi

Milliy hunarmandchilik buyumlari va ularni ishlab chiqarish jarayonlari koʻrgazmalari:

- Zar kiyimlar toʻqish;

- Yogʻochga ishlov berish;

- Sopol buyumlar;

-Gilam toʻqish;

-Qoʻgʻirchoq yasash;

-Kashtachilik;

-Rassomchilik;

-Misga ishlov berish;

Sharq bozori va uning xususiyatlari;

Xorazm viloyatida mavjud ekoturizm turlari va

ularni rivojlantirish imkoniyatlari:

Viloyatga tashrif buyuradigan turistlarga zamonaviy, xavfsiz va qulay transport xizmati koʻrsatilishi sifatini oshirish:

Amalga oshirilgan loyihalarning bir qismi

“Jonbos qalʼa” yodgorligi

“Yusuf Yasovulboshi” yodgorligi

“Husain Muhammadboy” yodgorligi

Yuqorida koʻrsatib oʻtilgan qalʼalar atroflarida va

qum barxanlarida mehmonxonalar tashkil etish;

Xorazmning mashhur qovun-tarvuz va mevalarini etishtirish xususiyatlarini turistlarga namoyish qilish, hamda qovun saylini tashkil qilish;

Amudaryoning tarixiy voqealar bo‘lib o‘tgan joylariga (Aleksandr Makedonskiy, Jaloliddin Maguberdi, Chingizxon kabi shaxslari bilan bog‘liq joylarga turistlarning tashriflarini tashkil etish).

Mavjud ko‘llarda turistlar tomonidan baliq ovi va sayohatlar tashkil etilishini uyushtirish;

To‘qayzorlar manzaralari va ularni o‘simlik dunyosi bilan turistlarni tanishtirish;

Cho‘l hududlariga tuyalar karvonlarinni tashkil qilish bilan turistlarni jalb etish;

Cho‘ldagi o‘simliklar, qum barxanlari manzaralarini tomosha qilish uchun turistlarni jalb qilish;

3.2. Xorazm viloyatida ichki turizmni rivojlantirishining SWOT tahlili

SWOT- tahlil usuli asosan korxonani tahlil qilish uchun qo‘llaniladi. Lekin bazida umumiy holatni bilish uchun korxonadan tashqari umumiy soxani ham tahlil qilish mumkin.



SWOT-inglizcha 4 ta soʻzning bosh harfidan olingan boʻlib, ular quyidagilar.

1. Strength – kuch
2. Weakness – kuchsizlik
3. Opportunites - Imkoniyatlar
4. Threats – xavf-xatarlar(tahdidlar)

SWOT tahlil ichki va tashqi muhitni birgalikda oʻrganishni olib borish imkonini beruvchi keng eʼtirof qilingan yondashuv hisoblanadi. SWOT usulini qoʻllash orqali korxonaga xos boʻlgan kuchlilik va kamchilik oʻrtasida hamda tashqi xavf va imkoniyatlar oʻrtasida aloqa yoʻllarini oʻrnatishga erishiladi. SWOT metodologiyasi avval kuchli va kuchsiz tomonlarni aniqlashni, shuningdek, xavf va imkoniyatlarni va undan soʻng ular oʻrtasida korxonaga strategiyasini aniq ifoda qilish uchun ishlatilishi mumkin boʻlgan aloqa zanjirini oʻrnatishni moʻljallaydi.

Kuchli jihatlar:

Imkoniyatlarning kengligi. Maʼlumki Xorazm viloyatida hali ochilmagan qirralar juda koʻp. Biz ushbu imkoniyatlarni realizatsiyalab, rivojlantirishimiz zarur. Xunarmandchilik, agroturizm, choʻl turizmi, shuningdek ziyorat turizmida ham rivojlantirilmagan bir qancha turistik jozibador joylar mavjud. Bu bizda ichki va tash

Oʻziga xos madaniy turizmning rivojlanganligi. Malumki Xorazm oʻziga xos madaniy turizm rivojlangan boʻlib, tarixiy obidalar va ziyoratgoh joylarning mavjudligi Xorazm shahrini degan nom chiqargan. Bunga sabab shaxar qadimiyligini hali ham yoʻqotmagan.

Odamlarining xushmuomalaligi. Malumki Xorazm aholisi xushmuomalaligi, mehmondoʻstligi bilan ajralib turadi. Odamlarni kamsitish, tabaqalash kabi fazilatlarni kamdan kam odamda uchratishimiz mumkin. Bu esa kelgan xorijiy va mahalliy turistlarga xush yoqmasdan qolmaydi.

Buyuk ipak yoʻlida joylashganligi. Qadimda sharq va gʻarbni birlashtirib, oʻziga xos xalqaro yoʻl boʻlib hisblangan Buyuk ipak yoʻlining Xorazm shaxridan

o`nganligi uni yanada mashxur qilib turibdi. Xozirda “Buyuk ipak yo`li bo`ylab” tur paketidan foydalanadiganlarning soni ham ko`payib bormoqda.

Ziyoratgoh joylarni ko`pligi. Ma`lumki qadimdan Xorazm shahri islom dinida katta o`rin tutib kelgan. Unda bir qancha avliyolarning ziyoratgohlari mavjud. Jumladan Pahlavon Maxmud va Nurullaboy madrasasi va boshqalar.

Kuchsiz jihatlar:

Alohida destinatsiya sifatida turistik portalining mavjud emasligi. Ma`lumki xozircha Xorazm hududi turistik hudud – destinatsiya sifatida o`zining brendi va portali mavjud emas. Bu esa turfirmalar yordamisiz mustaqil keladigan turistlar uchun noqulaylik tug`diradi. Ammo xozirda turistik portalni va brendni yaratish uchun ishlar amalga oshirilmoqda. Ushbu ishlar sifatli darajada amalga oshirilsa, xorijiy turistlar oqimi anchagina oshadi.

Iqlimning stabil emasligi ham Xorazm viloyatiga tashrif buyuradigan turistlar oqimiga bevosita ta`sir o`tkazadi. Namlik darajasi past bo`lgani uchun qish oylarida juda sovuq va yoz oylarida juda issiq bo`ladi. Bu esa mavsum bo`lmagan paytlarda turistlarning juda kamchilik miqdorda tashrif buyurishiga olib kelmoqda.

Soha bo`yicha kadrlar malakasining yetishmasligi. Ma`lumki xozirda turizm bo`yicha faoliyat olib borayotganlarning ko`pchiligi bu sohada oliy o`quv yurtlarda o`qimagan, mutaxassisligi boshqa bo`lgan kadrlardir. Bu esa xizmat sifatiga anchagina salbiy ta`sir o`tkazmoqda. Lekin yaqin yillar ichida sohada ishlaydiganlarni mutaxassislikga o`qitib, ularni turizm bo`yivha malaka va bilimlarini oshirish bo`yicha ishlar olib borilmoqda.

Ko`chalarining doim toza-ozoda tutilmasligi. Afsus bilan aytib otishimiz joyizki, bizni halqimizda o`zimiz yashaydigan ko`cha, uy atroflari tozaligiga mustaqil ravishda e`tibor qaratadigan odamlar kamchilikni tashkil qiladi. To`g`ri mahallalar tomonidan olib boradigan hasharlar, umumhalq hasharlari hududimizni butunlay ifloslanishini oldini olmoqda. Lekin baribir hududimizni doim toza va ozoda turadi deb aytishimiz qiyin. Kelgan turistlar bazi ko`chalardagi axlatlarni va chiqindilarni ko`rib dillari xira tortishi bu bor gap.

Yo'llarning sifati zamonaviy talablarga javob bermasligi. Xozirda yo'llarni obodonligi va zamon talabiga javob berishi uchun bir qancha ishlar amalga oshirilmoqda. Ammo baribir ko'pgina chekka hududlarda yo'llarimiz zamon talabiga hali ham javob bermaydi.

Yetib kelish narxlari xizmatlar narxlaridan yuqoriligi. Xizmatlarimizni sifati va haqiqiy narxi yetib kelish harajatlarini ba'zida qoplamasligi mumkin. Qiyinchilik bilan yetib kelgan turist shunga yarasha zavq olmasa, bundan yomoni yo`q.

Imkoniyatlar:

Yangi bozorga, yangi segmentga chiqish. Xozirda kelayotgan xorijiy va hatto mahalliy turistlarimizning ko'pchiligi 50 yoshdan o'tgan insonlardir. Albatta bizda ham yosh turistlarni jalb qilish uchun bir qancha imkoniyatlar mavjud. Tarixiylikni saqlab qolgan xolda yangi atraksion va ko'ngil ochar xizmatlarni taklif etsak, boshqa segmentdagi turistlarni o'zimizga jalb qilish imkoniyati mavjud. Ham ertaklar shaxriga kelib, ham ko'ngil ochar xizmatlardan bahra olib ketish yomon bo'lmaydi deb o'ylayman.

Agroturizmni rivojlantirish. Xorazmning ko'pchilik qishloqlarida ko'pgina turistik jozibador joylar mavjud. Bundan tashqari bizning mo'tadil iqlimimizning o'simliklari, n'ematlari ko'pgina davlatlarda mavjud emas. Shuning uchun qishloqlarda meva sayllari, paxta terimi va shunga o'xshash tadbir va marosimlar turistlarga qiziqish olib kelishi tabiiy.

Boshqa qadimiy shaharlarning siyosiy notinchligi. Ma'lumki xozirda ko'pgina tarixiy shaharlarda notinchlik hukm surmoqda. Masalan: Misr, Falastin, Iroq va hk. Tabiiyki u davlatlarga boradigan turistlar endi o'zlariga boshqa shunga o'xshagan ziyorat yoki madaniy joylarni izlashadi. Xorazm ham ziyorat ham madaniy turizmga anchagina yaxshi joy. Ko'pgina turistlar siyosiy notinch bo'lgan davlatlarga borishdan ko'ra, tinch va madaniy zavq olsa bo'ladigan joyga borishni ma'qul ko'rishadi.

Erkin iqtisodiy hududga aylantirish. Yaqin yillar ichida Xorazm hududini ham Erkin iqtisodiy hududga aylantirish bo'yicha ishlar amalga oshirilishni

boshlandi. Turistik portal va brend yaratilmoqda. Erkin iqtisodiy hudud yaratilsa, Xorazm hududi anchagina rivojlanishi mumkin.

Cho`l turizmini rivojlantirish. Xorazm hududida ko`pgina cho`l zonalari mavjud. Cho`l turizmiga keluvchi turistlar juda ko`pchilikni tashkil qilmasada, yaxshi tashkil qilinib cho`l poygasiga o`xshagan ishlarni amalga oshirsa qisman turistlarni salmog`i ko`payib qoladi.

Ko`pgina ziyoratgoh joylarda marshrutlarni kuchaytirish. Xorazm viloyati hududida juda ko`p avliyolarning ziyoratgohlari mavjud. Ulardan ko`pchiligiga hali marshrut yo`lga qo`yilmagan.

Xavflar:

Doimiy turoperatorlarning shartnoma tuzishidan voz kechishi. Xozirda ko`pchilik turistlar turfirma va turoperatorlar orqali kelmoqda. Agar turoperatorlar shartnoma tuzishdan voz kechsa, turistlar oqimi keskin kamayib ketishi mumkin.

Atrofimizdagi davlatlarda siyosiy notinchlikning mavjudligi. Bizning bazi qo`shni davlatlarimizda siyosiy notinchlik hamon hukm surmoqda. Masalan Afg`onistonda va O`zbekistonni nomidagi oddiygina "iston" qo`shimchasini umumiyliigi ham turistlar psixologiyasiga ta`sir qiladi. O`zbekiston deganda ko`pchilikni xotirasiga Afg`oniston davlati keladi. O`zbekistonni tinch davlat ekanini bilsa ham, ichki tuyg`ulari bu yerga kelmaslikga undaydi.

Iste'molchilar didining o'zgarishi. Xozirgi kunda zamon rivojlanayotgan paytda ko`pchilik madaniy va diniy turizmga qiziqishi biroz so`nib bormoqda. Agar insonlarning qiziqishlari shunday o'zgarib borsa, kamchilik turistlargina tarixiy obidalar va diniy ziyoratgohlarni ko`rishga keladigan bo`ladi.

Zamonaviylashish natijasida tarixiylikning yo`qolishi. Xozirgi zamonda dunyoning har bir hududi rivojlanib, zamonaviylashib bormoqda. Xususan Xorazm viloyatining eski shaxar hududida ham zamonaviy inshootlar barpo etish boshlandi. Bu esa Xorazmni tarixiylikiga keskin ta`sir qilmoqda.

Infratuzilmaning dunyo standartlariga javob bermasligi (yo`llar, ko`chalardagi tozalik va hokazo). Yuqorida kuchsiz jihatlarida aytib o`tganimizdek bizda infratuzilma hali ham dunyo talabiga to`liq javob beradi deb ayto olmaymiz. Bazi

turistik jozibador joylarga boorish turistlar uchun qiyinchilik tug`diradi. Jayron ekomarkazini bunga misol keltirishimiz mumkin.

3.3. Mamlakatimizda ichki turizmni rivojlantirish istiqbollari

Bugungi kunda barcha sohalarda amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlardan ko‘zlangan pirovard maqsad mamlakatimiz iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, xalqimiz turmush farovonligini yuksaltirishga qaratilgan.

Turizm – iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biri. Mavjud imkoniyatlardan samarali foydalangan holda, ushbu tarmoqni yanada takomillashtirish zarur, buni davrning o‘zi taqozo etmoqda, dedi Shavkat Mirziyoyev.

O‘zbekiston ham sayohat, ham ziyorat uchun qulay mamlakat. Chunki ona zaminimizda butun dunyoga ma’lum va mashhur bo‘lgan ajdodlarimiz mangu qo‘nim topgan. Ular qoldirgan boy ma’naviy-madaniy merosga xalqaro maydonda qiziqish juda katta. Sohani yanada rivojlantirish uchun, avvalo, zarur infratuzilmani takomillashtirish shart. Birinchisi, transport, ikkinchisi logistika, deb ta’kidladi Prezidentimiz.

Yig‘ilishda qayd etilishicha, 2017-yilning 9 oyi yakuniga ko‘ra, qariyb 1 million 800 ming sayyoh yurtimizga kelgan. Bu 2016-yilning mos davriga nisbatan 17 foiz ko‘pdir. Mamlakatimizda sayyohlik xizmatlari eksporti ham 17 foiz ko‘payib, 1 milliard 86 million dollarni tashkil qilgan. Yil oxiriga qadar mamlakatimizga tashrif buyuruvchi sayyohlar soni 2,5 milliondan oshishi kutilmoqda.

Mamlakatimizda turizmning yangi istiqbollari ochilib, turli yo‘nalishlarda keng qamrovli loyihalar amalga oshirilmoqda. Xususan, keyingi yillarda alpinizm, otda, tuyada, velosipedda sayohat qilish, off-road sayyohatlari, baliq ovi, rafting, xeliski, geoturizm, ta’lim turizmi, tibbiy turizm kabi yangi sayyohlik yo‘nalishlari ommalashmoqda.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2016-yil 2-dekabrda “O‘zbekiston Respublikasining turizm sohasini jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmoni turizm tarmog‘ini jadal rivojlantirishni ta’minlash, turizmga

iqtisodiyotning strategik sektori maqomini berish, mintaqalarda turizm salohiyatidan samarali foydalanishda muhim omil bo'lmoqda.

Farmonda belgilab berilgan maqsadli vazifalar hamda ustuvor yo'nalishlarni tashkil qilish va muvofiqlashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tashkil etildi.

O'tgan qisqa davr mobaynida O'zbekiston turizm salohiyatini kompleks rivojlantirishga qaratilgan 16 normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi. Ushbu hujjatlar asosida turizm sohasi subyektlariga sezilarli soliq va bojxona imtiyozlari hamda boshqa yengilliklar taqdim qilindi.

Mamlakatimiz turizm tarmog'ini Standartlashtirish bo'yicha xalqaro tashkilot (ISO) talablariga mos kelishini ta'minlash maqsadida turizm terminologiyasi va mehmonxona xo'jaliklari xavfsizligi talablari bo'yicha yangi 2 ta davlat standarti ishlab chiqildi va ro'yxatdan o'tkazildi.

Bulardan tashqari, Prezidentimizning tegishli qarori bilan hududlarda turizm sohasining boshqaruv tizimini yanada takomillashtirish maqsadida Toshkent, Samarqand, Buxoro va Xorazm viloyatlari hamda Xiva va Shahrisabz shaharlari hokimlarining turizm masalalari bo'yicha o'rinbosarlari lavozimi joriy etildi.

O'tgan davr mobaynida davlatimiz rahbari topshiriqlari asosida Xorazm, Buxoro, Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax va Farg'ona viloyatlarida turizm infratuzilmasini yaxshilash, yangi sayyohlik yo'nalishlari tashkil etish hamda hududlarning turizm salohiyatini keng targ'ibot qilishga qaratilgan dasturlar qabul qilindi. Jumladan, Buxoro va Samarqand shaharlarida sayyohlar uchun kunu tun faoliyat ko'rsatuvchi, har birining hududi 10 gektardan iborat "Qadimiy Buxoro" va "Samarqand siti" turizm hududlarini barpo etish bo'yicha ishlar boshlab yuborilgan.

Toshkent viloyatining Bo'stonliq, Parkent va Ohangaron-Angren turizm klasterlari hududlarida mehmon uylarini tashkil etish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar ishlab chiqildi va bugungi kunda amaliyotga joriy etilmoqda.

Prezidentimizning 2017-yil 16-avgustdagi “2018-2019-yillarda turizm sohasini rivojlantirish bo‘yicha birinchi navbatdagi chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori bu boradagi ishlarni yangi bosqichga ko‘tardi.

Qarorga ko‘ra, 2018-2019-yillarda soha oldida turgan muhim masalalar yechimiga bag‘ishlangan alohida dastur tasdiqlandi va uning to‘liq ijrosini ta‘minlash va sohada olib borilayotgan ishlarni idoralararo muvofiqlashtirish maqsadida Turizmni rivojlantirish bo‘yicha muvofiqlashtirish kengashi tuzildi.

Dastur asosida yuqoridagi kabi alohida turizm hududlari Toshkent, Urganch shaharlarida va Farg‘ona viloyatida tashkil etilishi belgilangan.

Shuningdek, dastur doirasida turizmning tibbiy, rekreatsiya, agro va ekoturizm yo‘nalishlari bo‘yicha alohida dasturlar qabul qilinishi ham belgilab qo‘yildi.

Zamonaviy turizm istiqbollariidan biri – noyob tabiiy maskanlar hisoblanadi. O‘zbekiston Markaziy Osiyoda ekoturizm eng rivojlangan yetakchi davlatdir. Yurtimiz boy hayvonot va o‘simlik dunyosi, betakror landshaft manzarasi, milliy an‘analar va taomlar oshxonasi bilan sayyohlar e‘tiborini qozonib keladi. Ugom-Chotqol Davlat milliy tabiat bog‘i, uning tarkibiga kiruvchi Chotqol davlat biosfera qo‘riqxonasi, Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi va Chimyon-Chorvoq kurort-rekreatsiya zonalarida O‘zbekistonda turizmni rivojlantirish masalalari doirasida salmoqli ishlar amalga oshirilmoqda.

Davlatimiz rahbari yig‘ilishda har bir yo‘nalish bo‘yicha, ya‘ni Yevropa, Osiyo va boshqa qit‘alardan keladigan sayyohlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqish, charter reyslar va temir yo‘llarda qatnovlar sonini ko‘paytirish, turizm rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini mukammal o‘zlashtirish, ichki turizmni rivojlantirish, sayyohlik obyektlarini takomillashtirish, xizmat ko‘rsatish sifatini yaxshilash borasida o‘z fikr-mulohazalarini bildirdi.

Mamlakatimizda turizm yo‘nalishida mutaxassislar tayyorlovchi 5 oliy o‘quv yurti, jumladan, Toshkentdagi Singapur menejmentni rivojlantirish instituti hamda o‘ndan ortiq o‘rta maxsus bilim yurti faoliyat ko‘rsatmoqda. Turizmni

rivojlantirish davlat qo‘mitasi sayyohlik sohasida ta’lim olayotgan yoshlar, sohada mehnat qilayotgan mutaxassislarning Yevropa hamda Osiyoning yirik sayyohlik markazlari va o‘quv yurtlarida malaka oshirishga ko‘maklashmoqda.

Soha istiqbolida yana bir muhim jihat – bu hududlardagi barcha madaniy-tarixiy meros obyektlari, tabiiy o‘lkashunoslik, milliy qo‘riqxonalar hududlarining yagona ma’lumotlar bazasini yaratish, turizm sohasidagi normativ-huquqiy bazani takomillashtirish, mintaqalarda turizmni rivojlantirish uchun joylardagi mahalliy hokimiyat organlari va jamoatchilik kuchlarini birlashtirishdan iborat. Bu boradagi izchil ishlarni amalga oshirishda mamlakatimizda mustahkam huquqiy baza yaratilgan bo‘lib, hududlar uchun maxsus dasturlar ishlab chiqilgan va jarayon izchil davom etmoqda.

Mamlakatimiz turizm industriyasi jadal rivojlanishida xususiy sektorning ustuvor ishtirokini ta’minlashga ham alohida e’tibor qaratilmoqda. Hozir yuzlab tadbirkor va hunarmandlar turizm sohasiga jalb qilingan bo‘lib, ular suvenir mahsulotlari ishlab chiqarish, mehmonxona xo‘jaligi, sayyohlarga xizmat ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi.

Turizmni rivojlantirishda xorij mamlakatlarida bo‘lib o‘tadigan sayyohlik ko‘rgazma va anjumanlari muhim ahamiyat kasb etadi. Yurtimiz milliy madaniy merosini chet ellarda ommalashtirish, mamlakatimizga xorijlik sayyohlarni ko‘proq jalb qilish va ichki turizmni rivojlantirish maqsadida mamlakatimiz sayyohlik tashkilotlari Madrid, Riga, Berlin, Parij, Tokio, London, Moskva, Istanbul kabi dunyoning yirik shaharlarida qator ko‘rgazmalar tashkil etmoqda yoki xalqaro ko‘rgazmalarda qatnashmoqda. Bu, albatta, o‘z samarasini berib, xorijiy sayyohlarning yurtimizga oqimi tobora ko‘paymoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yil 6 fevraldagi “Kirish turizmini rivojlantirishga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3509-sonli qarori ijrosini ta’minlash yuzasidan, “O‘zstandart” agentligi tomonidan tegishli tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, respublikaga turistlar oqimini ko‘paytirish, kirish turizmini milliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan biriga aylantirish, mamlakatning madaniy-

tarixiy merosi va tabiiy boyliklarini keng targ'ib qilish maqsadida, "O'zstandart" agentligi tomonidan O'zbekiston Respublikasining davlat standarti O`z DSt 3284:2017 "Eksport qilinadigan mahsulot tamg'asiga tushiriladigan tovar belgisi. Asosiy qoidalar" qabul qilindi. Ushbu standart eksportga yo'naltirilayotgan mahsulotlarni tamg'alash uchun qo'llaniladigan tovar belgilarini shakliga va tushirilishiga bo'lgan umumiy talablarni belgilaydi. Qabul qilingan davlat standarti tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan ishlab chiqarilayotgan eksportbop mahsulotlarga tadbiq etiladi.

Bugungi kunda tadbirkorlik sub'ektlari o'z mahsulotlarini horijiy davlatlarga www.uzbekistan.travel.com saytiga havola qilingan holda maxsus QR kodi bilan "Welcome to Uzbekistan" belgisi ostida eksport qilish imkoniyati yaratildi. Bu esa o'z navbatida horijiy sayyohlarni yurtimizga tashrifini yanada ko'payishiga imkon beradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Ma'lumki, turizm dunyo mamlakatlarida milliy iqtisodiyotga salmoqli daromad keltiruvchi sohalardan biri hisoblanadi. Butunjahon Sayyohlik tashkilotining ma'lumotlariga ko'ra mazkur soha daromadi yiliga 1,5 trillion AQSH dollarini tashkil etadi.

Keyingi yillarda davlat tuzilmalarining turizmga nisbatan munosabati keskin o'zgarib bormoqda. Ular turizmga milliy iqtisodiyotning inqirozdan chiqishi, bozor hududini shakllantirish, davlat byudjetiga katta mablag'lar tushishining amaliy usuli, bo'sh vaqtdan oqilona foydalanish, dam olish vaqtini mazmunli o'tkazish shakli va xalqni mamlakatning tarixiy-madaniy qadriyatlariga jalb qilish usulini ko'rmoqdalar. Xorijiy mutaxassislar respublikamizning uning nodir tabiiy resurslari va tarixiy-madaniy merosi tufayli turistik jihatdan istiqboli porloq mamlakatlar jumlasiga kiritadilar.

Shu boisdan ham, turizm o'zida jahon iqtisodiyotining murakkab va majmuaviy sohalarini mujassam etganki, bu iqtisodiyot tarmoqlariga sezilarli ta'sir o'tkazadi. Chunki, turizm valyuta tushumlarining yagona manbai hisoblanadi. Uning sharofati bilan iqtisodiy taraqqiyot yuqori darajasi va xalq turmush farovonligi qo'llab-quvvatlanib turiladi.

Xorazm viloyatida turizm hamda turistik xizmatlarning tobora rivojlanib borishi natijasida so'nggi yillarda uning noan'anaviy turlari - ekoturizm, agroturizm, arxeologik, etnografik, diniy turizm, ekstremal sharoitlar turizmi va boshqalar shakllana boshladiki, bugungi kunda mazkur yo'nalishlar mutaxassislar tomonidan tez taraqqiy qilayotgan sohalar sifatida baholanmoqda. Ayniqsa, bugun ko'pchilikning diqqat-e'tiborida bo'layotgan va turizmning eng istiqbolli turlaridan biri ekoturizm jadal rivojlanmoqda.

Shuningdek, turizm yagona tizim sifatida rivojlanmoqda va mamlakatimiz byudjetiga salmoqli daromad keltiradi. Hamda ushbu sohada ko'pchilik turistik xizmatlar ko'rsatish bilan bog'liq jismoniy va yuridik shaxslarga yordam korsatadi. Turizm faqat eng yirik va iqtisodiyotning eng dinamik holatda rivojlanayotgan

sektorlaridan biridir. Uning tez surʼatlarda oʻsishi bilan yuz yillikning iqtisodiyfenomeni sifatida tan olingan.

Darhaqiqat, viloyatda turistik xizmatlarga oʻsib borayotgan talab, eng avvalo ijtimoiy-iqtisodiy sabablar bilan izohlanadi. Bularning jumlasiga transport taraqqiyotidagi oʻsish va uning arzonlashishi, valyuta cheklovlarining kamaytirilishi yoki bekor qilinishi va viza rejimining liberallashtirilishi kabilarni kiritish mumkin.

Bu borada birinchi Prezidentimizning —2013-2015 yillarda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish dasturi toʻgʻrisidagi qarori vohaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Vazirlar Mahkamasi tomonidan ushbu qaror ijrosi yuzasidan qabul qilingan dastur boʻyicha viloyatda keng koʻlamli ishlar olib borilmoqda. Sayyohlikni jahon talablari darajasiga toʻliq olib chiqilishini taʼminlay oladigan mazkur chora-tadbirlar xalqaro turizm bozorida mamlakat salohiyatini namoyish etishdan tortib, malakali mutaxassislar tayyorlashgacha boʻlgan keng koʻlamli vazifalarni qamrab olgan.

Ana shulardan kelib chiqib, Xorazm viloyati turizm sohasini rivojlantirishning mintaqaviy xususiyatlarini yoritishda turizm sohasini rivojlantirishning nazariy-uslubiy asoslariga toʻxtalib oʻtish joiz. Ishda ushbu jihatlarni oʻrganish turizm tushunchasi va uning mohiyati, turizm turlari va uning asosiy xususiyatlari hamda turizm sohasini rivojlantirishda turistik tashkilotlarning oʻrnini ochib berish kabilar orqali amalga oshirildi.

Shuningdek, Xorazm viloyati turizmini rivojlantirishning yoʻnalishlari va xususiyatlari oʻz navbatida Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlili, turizmini rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlarining tutgan oʻrni hamda turizmni rivojlantirish yoʻnalishlari va istiqbollari ajratilib tadqiq qilindi.

Biroq, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning hozirgi holati tahlili turizm bilan bogʻliq oʻzgarishlar va rivojlanish jarayonlarini koʻrsatadi. Shu boisdan ham, bugungi kunda Xorazm viloyatida turizmni rivojlantirish bilan bogʻliq boʻlgan masalalarga katta eʼtibor berilib, uning turistik salohiyatidan

samarali foydalanish yo'llari shakllanmoqda. Buni yanada takomillashtirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti va hukumatining bir qancha farmon va qarorlari, viloyatlarda esa uning ijrosini ta'minlashga bag'ishlangan qarorlari qabul qilindi.

Xususan, O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini o'rta muddatli istiqbolda rivojlantirishni konsepsiyasini amalga oshirish bo'yicha Xorazm viloyatining 2017-2021 yillarda amalga oshiriladigan chora-tadbirlar dasturi ishlab chiqilib, ushbu dasturning tarkibi va maqsadi manfaatdor vazirlik va idora tashkilotlar bilan kelishish uchun Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasiga taqdim qilindi.

Umuman olganda, Xorazm viloyatining turizm salohiyatini rivojlantirishda infratuzilma tarmoqlari ham alohida o'rinni egallaydi hamda bu turistik mahsulotlarning ishlab chiqarishdagi umumiy shartlarining birlashgan majmuasi hisoblanadi. Natijada, ushbu o'zgarishlar mintaqada turizmni rivojlantirish yo'nalishlarini belgilash va istiqbollarni aniqlashga olib keladi.

Yuqoridagilardan kelib chiqib, Xorazm viloyatida turizm sohasini rivojlantirishni takomillashtirish maqsadida quyidagi yo'nalishlardagi takliflarni amaliyotga joriy qilish lozim:

- viloyatdagi turistik ob'ektlarni aniqlash, ulardan samarali foydalanishga qaratilgan chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- turizm infratuzilmasiga ta'sir qiluvchi omillarni aniqlash va ularning ijobiy ta'sirini izlab topish;
- turistik tashkilotlar o'rtasidagi iqtisodiy munosabatlarni uyg'unlashtirib borish va yanada yaxshilash;
- turistik biznesni barqaror rivojlantirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

I. Me'yoriy-huquqiy asoslar va Prezident asarlari

1. O'zbekiston Respublikasining 1999 yil 20 avgustdagi "Turizm to'g'risida"gi qonuni. 3-modda.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-sonli Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2017 y., 6-son, 70-modda

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 3 fevraldagi PF-5326-sonli "O'zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish bo'yicha qo'shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni

4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 5 yanvardagi "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-sonli Farmoni.

5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 10 maydagi "2012-2016 yillarda O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish dasturi to'g'risida"gi PQ-1754-sonli Qarori.

6. O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimovning mamlakatimizni 2015 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2016 yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan Vazirlar Mahkamasining majlisidagi ma'ruzasi. G'G' Xalq so'zi, 2016 yil 16 yanvar.

7. Karimov I.A. O'zbekiston XXI asrga intilmoqda. – T.: O'zbekiston, 1999.

8. Karimov I.A. Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari. – T.: O'zbekiston, 2009. -15-25 b.

9. Karimov I.A. Ona yurtimiz baxtu iqboli va buyuk kelajagi yo'lida xizmat qilish – eng oliy saodatdir. – T.: O'zbekiston, 2015.

10. Mirziyoev Sh.M. Erkin va farovon demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 29 b.

11. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston, 2017. – 47 b.

12. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: O'zbekiston, 2017. – 485 b.

II. Ilmiy adabiyotlar va statistik to'plamlar

13. Aleksandrova A. Mejdunarodno'y turizm. Uchebnik. - M.: Aspekt Press, 2004.

14. Alieva M. Mehmonxona iqtisodi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2011.

15. Alieva M. Mehmonxona xo'jaligi menejmenti. O'quv qo'llanma. – T., 2011.

16. Aliyeva M., Norchayev A. Turizm menejmenti. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2007.

17. Bekmuradov A., Qosimova M., Safarov B. Xizmatlar marketingi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2010.

18. Дурович А. Маркетинговые исследования в туризме: Учеб. пособ. - СПб.: Питер, 2008.

19. Дурович А. Маркетинг в туризме. Учебное пособие. 4-е изд., стереотип (ГРИФ). – М., 2004.

20. Jalolov J. Marketingni boshqarish strategiyalari. O'quv qo'llanma. - T.: Fan va texnologiya, 2012.
21. Ibragimov R. Marketing. O'quv qo'llanma. - T., 2002.
22. Introduction to Management Hospitality. Clayron W.Barrows and anothers. USA, 2012.
23. Kamilova F., Ro'ziev S. Turizm marketingi. O'quv qo'llanma. – T.: TDIU, 2007.
24. Karriyeva Y., Nematov I., Masharipov A., Egamberdiyev Y., Abdurahimov S., Baxronov A. Reklama faoliyatini tashkil etish. O'quv qo'llanma. - T.: TDIU, 2009.
25. Kristofer L. Marketing uslug: Personal, texnologii, strategiya, 4-e izd.: per. s angl. - M.: Izdatelskiy dom “Vilyams”, 2005.
26. Kotler Ph., John T.Bowen, James C.Makens. Marketing for Hospitality and Tourism. - Pearson,USA, 6 th Edition, 2014.
27. Kotler F. Osnovo' marketinga. – M.: Gosintor, 1996.
28. Lennon Dj., Smit X., Kokerell N., Tryu D. Upravlenie industriy turizma. Luchshiy opo't deyatelnosti natsionalno'x organizatsiy i agentstvo po turizmu. - M.: Gruppa IDT, 2008.
29. Lim Tau Sian HemaSubramonian Lisa Tung Wong Heng San Karen Ho Kai Hui Toney Thomas Kulampalil - Fundamentals of Hospitality and Tourism Management, 2011.
30. Mamatqulov X., BektemirovA., Norchaev A. Xalqaro turizm. Darslik. – T., 2009.
31. Mamatqulov X. Mehmonxona va turistik komplekslarda xizmatlarni tashkil etish. O'quv qo'llanma. – S.: SamISI, 2012.

32. Mamatqulov H. Xizmat ko'rsatish sohasiga oid atamalar va iboralar izohli lug'ati. - T.: Iqtisod-moliya, 2010.
33. Marketing in Travel and Tourism. Third edition. Victor T. C. Middleton with Jackie Clarke. Oxford Auckland. Boston Johannesburg. Melbourne. New Delhi. Victor T.C. Middleton, 2001.
34. Markova V. Marketing uslug. - M.: Finanso' i statistika, 1996.
35. Pesotskaya E. Marketing uslug. - SPb.: Izdatelstvo "Piter", 2000.
36. Rossiter Dj., Persi L. Reklama i prodvijenie tovarov. - M., 2000.
37. "Role of public-private partnership for the development of tourism sector" Omer Celik minister of culture and tourism in turkey 2014. Turk Stat, Central Bank, Ministry of Culture and Tourism.
38. Scott Mc Cabe. Marketing communications. Concepts, strategies, cases. Elsevier, 2009.
39. Simon Hudson. Tourism and Hospitality Marketing. A Global Perspective. S. SAGE. Los Angeles. London. New Delhi. Singapore. 2008.
40. Timoxina T. Organizatsiya priyoma i obslujivaniya turistov: uchebnoe posobie. - 3-e izd., pererab. i dop. - M.: INFRA-M, 2008.
41. Tuxliev I., Bektemirov A., Usmanova Z. Turizmda strategik marketing. O'quv qo'llanma. - S.: SamISI, 2010.
42. Tuxliev I., Pardaev M. Turizmda xizmat ko'rsatishni rivojlantirish - aholi bandligini oshirish manbai. - T., 2008.
43. Tuxliev I., Qudratov G', Pardaev M. Turizmni rejalashtirish. Darslik. - T.: Iqtisod-moliya, 2010.

44. Usmanova Z. Turizm marketingi. Ma'ruzalarkursi. – S.: SamISI, 2008.

45. Xayitboev R., Amriddinova R. Turizmda marketing tadqiqotlari. Uslubiy qo'llanma. - Samarqand, 2009.

46. Xorazm viloyatini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish strategiyasi. G' A. Sodiqovning umumiy tahriri ostida. – T.: IFMR, 2015.

47. Xorazm viloyati Turizmni rivojlantirish departamenti ma'lumotlari

48. Xudayberganov D., Ibragimov B. Marketing asoslari. Kasb-hunar kollejlari o'quvchilari uchun o'quv-uslubiy qo'llanma. – Urganch: UrDU nashriyoti, 2013.

49. Eshtaev A. Turizm industriyasini boshqarishning marketing strategiyasi. Monografiya. - T.: Fan, 2011.

50. Yusupov M., Ergashxodjaeva Sh. Tovar va xizmatlar marketingi. O'quv qo'llanma. – T.: Iqtisodiyot, 2013.

51. O'zbekistonda turizm. O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi to'plami. – T., 2017.

52. Qosimova M., Yusupov M., Ergashxodjaeva Sh. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2010.

53. Qosimova M., Yusupov M., Ergashxodjaeva Sh. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011.

III. Internet saytlari

54. <http://www.wttc.org>

55. <http://travel-expert.ru>

56. <https://works.doklad.ru>

57. <http://tourlib.net>

58. <http://tourfaq.net>
59. <https://bstudy.net>
60. <http://www.lex.uz>
61. <http://www.biznes-daily.uz>
62. <http://www.ziyonet.uz>
63. <http://www.stat.uz>